Sultan Qaboos Universiteti professori Ahmed Yousif Abdelraheemning (Arab davlati) mobil ijtimoiy media ilovalarining talabalar hayotiga ta'siri mavzusidagi ilmiy tadqiqoti birinchi navbatda so'rov yordamida miqdoriy yondashuv bilan amalga oshirilgan. Mobil ijtimoiy texnologiyalar ijtimoiy ta'lim muhitini yaratish uchun yangi va innovatsion usullarni taqdim etib, muayyan masalalarda hamkorlik qiladigan

talabalarining onlayn jamoalarini yaratish uchun ijtimoiy aloqalar uchun chat, kanal kabilarda ishlash imkonini berishi kabi xulosalarga kelingan.

Shvetsariyalik olim Carina Granberg ta'lim, AKT, rekontekstualizatsiya (nutqdan kontekstni ajratib olish jarayoni) haqidagi tadqiqotining maqsadi o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida o'qitish uchun axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bir nechta tashabbuslar amalga oshirish jarayonini sinchkovlik bilan o'rganish va pedagogik ta'lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan o'qitish usullaridan foydalanish va tarqatish hisoblanadi. Tadqiqotda axborot kommunikatsion texnologiyalarini qo'llab-quvvatlaydigan uchta o'qitish va o'qitish usullari tanlangan: individual rivojlanishni raqamli rejalashtirish (IUP), bloglar va elektron portfolio. O'qituvchilar va talabalarining AKTdan pedagogik foydalanishni joriy etish bo'yicha tajribalarini to'plash uchun 115 ta intervyu o'tkazilgan va to'rt yillik davrda (2006-2010) to'rtta so'rovnoma o'tkazilgan, bloglar va elektron portfolio kabi AKT tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan metodikalar AKT nutqlari va loyihalari ijtimoiy jihatdan ishlab chiqilgan rekontekstualizatsiya jarayoni orqali kontekstda o'z aksini topgan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish sohasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. **J.O. Hakimov** bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot-kommunikatsion tayyorgarligini kompyuterli loyihalash vositalari asosida takomillashtirish ("Kompyuterli loyihalash" o'quv fani misolida) mavzusidagi tadqiqotida "Kompyuterli loyihalash" o'quv fanini fanlararo o'quv moduli asosida o'qitish orqali bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining axborot-kommunikatsion tayyorgarligini kompyuterli loyihalash vositalari asosida takomillashtirish jarayoni modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslash maqsadida kasb ta'limining rivojlanish tendensiyalarini aniqlashtirishga imkon beruvchi ilmiy-metodik adabiyotlarni metodologik va nazariy tahlil etish, kasbiy bilim, ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirishga tizimli yondashuv; tajriba materiallarini tahlil va sintez qilish; kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, talabalarining bilim, ko'nikma va amaliy malakalar hamda kasbiy muhim sifatleri darajasini tashxis qilish, pedagogik tajriba-sinovdan olingan ma'lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan kompleks foydalangan. Kasb ta'limi yo'nalishlari talabalarining kompyuterli loyihalash vositalari bo'yicha axborot kommunikatsion tayyorgarligi darajalarini (kognitiv, protsessual, faoliyatli) tashxislash tahlili, loyihalash-konstruktorlik, amaliy test, darajali topshiriqlarni bosqichli bajarish komponentlari funksiyalarini integrativ muvofiqlashtirish orqali obyektiv baholash imkoniyatlari ochib berilgan.

T.N. Jo'rayev raqamli texnologiyalar asosida talabalar o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirish metodikasi (Ta'limda axborot texnologiyalari fani misolida) mavzusidagi tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim texnologiyalari va

bulutli dasturlash servislaridan foydalanib o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirish maqsadida Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy, pedagogik, psixologik adabiyatlarni qisqis o'rganish va tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik (kuzatish, suhbat, tashxislash, so'rovnoma, test), tajriba-sinov, olingan natijalarini matematik va statistik qayta ishlash metodlardan foydalanib, Ta'limda axborot texnologiyalaril fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni matnli, video va animatsiya erdamida kasbiy faoliyatga yo'naltirib o'qitish mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladigan raqamli ta'lim uchun metodik ta'minot yaratilgan; fanni o'qitishda raqamli ta'lim muhitini hosil qiluvchi mobil ta'lim va elektron axborot resurslari bulutli dasturlash xizmatlaridan foydalanib yaratilgan, ulardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan; baholash mezonlari asosida bulut texnologiyasidan foydalanib, interfaol testlar ishlab chiqilgan va ta'lim jaraeniga joriy etilib, o'zlashtirish samaradorligi aniqlangan..

G.T. Yuldasheva klasterli yondashuv asosida talabalarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi (informatika o'qitish metodikasi fani misolida) tadqiqotida Informatika o'qitish metodikasi fanini o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassislarning "kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash", nazariy jihatdan asoslash maqsadida Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.) kabi usullar majmui qo'llab, bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentligini ta'lim shakllarining klasterli muhitida rivojlantirishga qaratilgan ta'lim metodlari (smart, sindikat, scamper, diamond)dan samarali foydalanilgan va dasturiy vositalar ustuvorligini ta'minlagan holda talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Informatika o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

R.U. Umarova tomonidan ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida, tadqiqot ishi davomida ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlili, sintez, taqqoslash, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, ekspert baholash, faoliyat natijalarini o'rganish, so'rovnoma, pedagogik eksperiment, materiallarga matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanib, o'quvchilarni intellektual salohiyatini rivojlantirishning mezon hamda me'yorlari aniqlashtirilgan; "Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish" nomli uslubiy qo'llanma amaliyotga joriy etilgan; "Informatika va

axborot texnologiyalari” fanidan interfaol amaliy mashg‘ulot ishlanmalari yaratilgan; intellektual salohiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan iSpring Quiz Maker ilovasidan foydalanishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

F.P. Raxmonkulov raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining web-dizayn bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining web-dizayn bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan, talabalarda web-dizayn bo‘yicha kompetentlikni raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish modeli kasbiy axborotlarga ishlov berishning motivatsion variativ yondashuvlarini kreativ rejalashtirishning differensial bosqichlariga shaxsiy xislatlar yaxlitligida optimallashtirishga hamda fanlararo aloqalarga asoslangan pedagogik, ijtimoiy va psixologik tashxisning kompetensiyaviy mezonlari kasbiy tayyorgarlik sifatini barqaror ta‘minlovchi grafik topshiriqlarni raqamli tahlil muhitida moslashuvchan takroriy intervalda intensiv qo‘llashga doir amaliy taklif va tavsiyalari “Kompyuter grafikasidan videodarslar” nomli elektron o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan.

G.B. Quzmanova sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda O‘quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi (8-sinf misolida) nomli tadqiqotida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish tadqiqoti jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov ishi, so‘rovnoma, test, suhbat, bahs-munozara, online monitoring, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash va tahlil etish usullaridan foydalanib, ta‘lim jarayonida ijtimoiy media marketing vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning raqamli savodxonligi rivojlantirilgan sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan; umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilari uchun ijtimoiy tarmoqlar vositasida To‘garak mashg‘ulotlarini olib boruvchi elektron platforma yaratilgan (Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan olingan № DGU 19480 - sonli guvohnoma) va amaliyotga joriy etilgan.

J.H. Hamrayevning “Telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarga informatika fanini o‘qitish metodikasi (“Texnologik ta‘lim” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi misolida)” nomli tadqiqotida telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarga informatika fanini o‘qitish maqsadida, nazariy, psixologik, pedagogik, tabiiy-ilmiy (informatika), umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlariga doir adabiyotlarni tadqiqot muammosi va fanlararo uzviylik nuqtai nazaridan o‘rganish, tahlil qilish, malaka talablari tahlili, empirik: kuzatish, suhbat; statistik: so‘rovnoma o‘tkazish, pedagogik tajriba-sinovi va matematik-statistika metodlaridan foydalanib, bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilariga informatika fanini o‘qitish orqali kasbiy kompetensiyalari komponentlarini rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari ishlab

chiqilgan, shu bilan birga, telekommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanib informatika o'qitishning metodik modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan, bo'lajak o'qituvchilarni telekommunikatsiya texnologiyalari vositasida kasbiy kompetensiyalari komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan "Informatika" fani uchun dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

P.T. Abduqodirova tomonidan bo'lajak o'qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi bo'yicha tadqiqot olib borilgan, tadqiqotda psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlarni tahlil qilish, muammoga doir asosiy tushunchalar tahlili, prognozlash, modellash, retrospektiv tahlil, suhbat, so'rovnomalar, pedagogik tajriba-sinov, test, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan va bo'lajak o'qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarning rivojlanganligini baholashning diagnostik vositalari ishlab chiqilgan va bo'lajak o'qituvchilarda algoritmik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Hozirgi kunda O'zbekistonda davlat pedagogika oliy ta'lim muassasalarida tanlov fan sifatida "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fani o'tilyapti, bu fan doirasida turli topshiriqlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash talabalarning mediasavodxonlik darajasini hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan misol tariqasida: Windows operatsion tizimi imkoniyatlari mavzusini o'tish doirasida quyidagi amaliy topshiriqlarni tashkil etish mumkin:


1. Windowsda kompyuterning asosiy xarakteristikasini bilishning bir necha usullarini bajarish ketma-ketligini amalda bajaring
2. Windowsda "RUN" oynasi ya'ni, bajarish oynasidan dastur va papka va funksiyalarni chaqiring.
3. Windowsda monitorga ulangan proektorni sozlang
4. Windowsda oynalarni boshqarish amallarini bajaring

Birinchi topshiriqni bajarish davomida kompyuterning asosiy qurilmalarining xususiyatlari: tezligi, hajmi, turi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.




1-rasm. Kompyuterning asosiy qurilmalari haqida ma'lumot beruvchi oyna

Ikkinchi topshiriqni bajarish jarayoni talabalarda dastur va funksiyalarga oson kirish imkonini beradi.



2-rasm. Run oynasida Word dasturini chaqirish




3-rasm. Run oynasi orqali Power point oynasini chaqirish

Yuqoridagi dasturlar kabi boshqa dastur va funksiyalarni chaqirish mumkin:


chrome	Chrome brauzeriga kirish
mspaint	Paint standart grafik dasturga kirish
notepad	Bloknot standart dasturiga kirish
calc	Kalkulyatorni ochish
magnify	Ekran lupasi
snippingtool	Qaychi funksiyasi
osk	Ekran klaviaturasini chaqirish
explorer	Pravodnik(Boshlovchi) oynasini chaqirish
downloads	Yuklab olingan dastur va fayllar papkasini ochish
control	Windows sozlamalari oynasini ochish
Appwiz.cpl	Windowsda kompyuterda o'rnatilgan dasturlar ro'yxatini chaqirish
charmap	Windowsda belgilar ro'yxatini chaqirish

Uchinchi topshiriqni bajarish jarayonida talabalar kompyuterga ulangan qo'shimcha monitorni sozlashni o'rganadilar:



4-rasm. Kompyuterga ulangan qo‘shimcha ekranni sozlash oynasi

To‘rtinchi topshiriq talabalarda windowsda bir vaqtda ekranda 4 ta oynada ishlash imkoniyatini beradi, bu amallar kelajakda kasbiy sohalarida ish unumdorligini oshirishda ko‘maklashadi.



5-rasm. Windowda bir vaqtda 4 ta oynada ishlashning ko‘rinishi

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi kabi amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘nikmasi bu mediani samarali boshqarish va undan foydalanish qobiliyatidir. Axborot izlash, manbalarni tekshirish va turli media vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga olgan amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarga media

platformalardan malakali foydalanuvchi bo'lishga yordam beradi. Masalan, talabalarga onlayn manbalar, kitoblar va intervyulardan foydalangan holda ma'lum bir mavzuni tadqiq qilish topshirilishi mumkin. Ushbu faoliyat talabalarga ishonchli ma'lumotni qanday topish va ishonchli manbalar va soxta yangiliklar o'rtasidagi farqni tushunish imkonini beradi. Bundan tashqari, amaliy muammolar ijodkorlik va media ishlab chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Talabalar podkastlar, videolar yoki ijtimoiy media kampaniyalari kabi o'zlarining media kontentini yaratishga undashlari mumkin.[5] Ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqarishning barcha jarayonida faol ishtirok etib, talabalar nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantiradilar, balki xabarlarini samarali muloqot qilish qobiliyatini ham oshiradilar. Bu ularga ommaviy axborot vositalarining passiv iste'molchisi emas, balki faol ijodkor va ishtirokchi bo'lish imkoniyatini beradi. Amaliy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etish jamoada ishlash, hamkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ko'pincha media-loyihalar talabalardan guruhlarda ishlashni, fikr almashishni, topshiriqlarni topshirishni va ularning natijalarini taqdim etishni talab qiladi. Bu hamkorlik orqali o'quvchilar o'z fikr va mulohazalarini samarali ifoda etish, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish va umumiy maqsad sari harakat qilishni o'rganadilar. Ushbu ko'nikmalar nafaqat ommaviy axborot vositalari bilan bog'liq sohalarda, balki turli xil professional va shaxsiy kontekstlarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Maqolada yoritilgan Windows operatsion tizimi imkoniyatlari mavzusida yoritilgan topshiriqlarni amalda bajarish ko'nikmasini egallagan o'rganuvchilar kelajakda kasbiy sohalarida qo'llab, vaqt unumdorligiga erishadilar.

Xulosa. Amaliy topshiriqlar talabalarining mediasavodxonligini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Amaliy topshiriqlar talabalarga olgan bilimlarini amalda qo'llash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va media muhitining faol ishtirokchisiga aylanish imkoniyatini beradi. Amaliy tajriba orttirish orqali talabalar mediasavodxonlik haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar va ommaviy axborot vositalarining murakkab olamida faol bo'lishga yaxshiroq tayyorlanishadi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida media kompetentsiyasini rivojlantirishga ko'maklashish va ularni ommaviy axborot vositalariga asoslangan jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlash uchun ta'lim dasturlariga amaliy mashg'ulotlarni kiritishlari juda muhim deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.T. Abduqodirova.(2022). Maktab informatika kursini mobil texnologiyalar asosida o'qitish. Science and innovation. №2.
<https://cyberleninka.ru/article/n/maktab-informatika-kursini-mobil-tehnologiyalar-asosida-itish?ysclid=lws03fqsch313934424>

2. Carina Granberg. (2010). [Social software for reflective dialogue: Questions about reflection and dialogue in student teachers' blogs](#). Technology, Pedagogy and Education. 19 (3), 345-360
3. Ahmed Yousif Abdelraheem.(2018). The Impact of Using Mobile Social Network Applications on Students' Social-Life. *International Journal of Instruction*. https://www.researchgate.net/publication/324112412_The_impact_of_using_Mobile_Social_Network_Applications_on_Students'_Social-Life
4. Fayziyeva D.KH. (2017). Ustanovleniye razgovornogo trakta v IP-telefonii // Molodoy uchenyy. №4. <https://moluch.ru/archive/138/38635/?ysclid=lwrzmgqpzt807559833>
5. Fayzieva D.Kh. (2020). Using software for teaching foreign language using software for teaching foreign languages. Academy 2020. № 9 (60). <https://cyberleninka.ru/article/n/using-software-for-teaching-foreign-languages?ysclid=lwrzod8182295675855>
6. Fayzieva D.Kh. (2020). About the theory of multiple intelligence. Vestnik nauki i obrazovaniya № 19 (97), Part 2. <https://scientificjournal.ru/images/PDF/2020/97/VNO-19-97-II-.pdf?ysclid=lwrzqjfc1a677666556>
7. D.KH Fayziyeva. SH.T.Yakhyayeva. (2020). Vliyaniye tsifrovogo obrazovaniya na uspekhi uchashchikhsya //Universum: tekhnicheskkiye nauki №5 (98) <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13764>
8. D.KH Fayziyeva. B.N.Takhirov. Z.M. Adizova. (2022). Obucheniye programmirovaniyu s pomoshch'yu geymifikatsii//Vestnik nauki i obrazovaniya №6 (126).Part 2. <https://cyberleninka.ru/article/n/obuchenie-programmirovaniyu-s-pomoschyu-geymifikatsii?ysclid=lwrzthkhvt273668724>
9. D.KH Fayziyeva, G.KH. Turayeva.(2023). Artificial intelligence in modern projects //Universum: tekhnicheskkiye nauki № 4 (109) <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/15281>

BIR NOMA'LUMLI BIRINCHI DARAJALI TENGLAMALARNI YECHISH METODIKASI

Rashidov Anvarjon Sharipovich

Buxoro davlat pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrası dotsenti

Email: anvar.rashidov@bk.ru

Tel: +998 91-311-16-05

Dilmurodova Marjona Sur'at qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Email: suhrob.dilmurodov@icloud.com

Tel: +998 93-405-26-21

Annotatsiya. Ushbu maqolada bir noma'lumli birinchi darajali tenglamalar va ularni yechish usullari ko'rsatilgan. Bu tenglamalarni yechishda turli xildagi misollar va xossalardan foydalanilgan. Mavzuni tushuntirishda turli xildagi interfaol metodlardan foydalanilgan. Ulardan foydalanishning asosiy vazifalari o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish va jalb qila olishdir.

Kalit so'zlar: interfaol metod, tenglama, svetafor, bir noma'lumli chiziqli tenglama, 1-xossa, 2-xossa, mosini top.

МЕТОДОЛОГИЯ РЕШЕНИЯ УРАВНЕНИЙ ПЕРВОГО УРОВНЯ С ОДНИМ НЕИЗВЕСТНЫМ

Анваржон Шарипович Рашидов

доцент Бухарского государственного педагогического института

Марджона Дильмуродова Сурата кизи

**Студентка 3 курса Бухарского государственного педагогического
института.**

Аннотация: В данной статье представлены уравнения первого порядка с одним неизвестным и методы их решения. Для решения этих уравнений используются различные примеры и свойства. Для объяснения темы использовались различные интерактивные методы. Основная задача их использования – заинтересовать и привлечь учащихся к теме.

Ключевые слова: интерактивный метод, уравнение, светофор, линейное уравнение с одной неизвестной, свойство 1, свойство 2, найти соответствие.

THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE SQUARE OF ADDITION AND DIFFERENCE

Anvarjon Sharipovich Rashidov

Associate professor of Bukhara State Pedagogical Institute

Dilmurodova Marjona Sur'at qizi

3rd level student of Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: This article presents first-order equations with one unknown and methods of solving them. A variety of examples and properties are used to solve these equations. Various interactive methods were used to explain the topic. The main task of using them is to interest and attract students to the topic.

Key words: interactive method, equation, traffic light, linear equation with one unknown, property 1, property 2, find the matching.

1.Kirish. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayya maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish; ta'lim oluvchining yuqori

darajada rag'batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi; ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi; ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o'rganilishi; ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi. Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili.

[3] maqolada matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

[4] maqolada o'quv fanlarini o'rganishda tarixiy yondashuv ma'lum darajada o'quv jarayonini ilmiy bilimga yaqinlashtirishi hamda o'qituvchining matematika tushunchalari bilan tanishar ekan, dars jarayonida ularning tarixi va rivojlanishi (asosan, buyuk ajdodlarimiz xizmatlari) haqida so'z yuritishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ona Vatanga muhabbatini tarbiyalashi haqida fikr yuritilgan.

[5] maqolada matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanilish masalasi tahlil qilingan. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqligi qayd qilingan. O'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlashi, ularni hayotga tadbqiq eta olishga tayyorlanishi haqida so'z yuritilgan.

[6] maqolada bugungi fan va texnika rivojlangan davrda talabalar bilimini mustahkamlashda mustaqil ta'limning o'rni alohida ahamiyat kasb etishi qayd qilingan. Shu nuqtai nazardan mustaqil ta'limni bajarishda talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, mustaqil bilim olish, mustaqil ishlanish va mustaqil o'z ustida ishlashga o'rgatish bugungi kunda juda muhimligi ta'kidlangan. Hamda talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, talabalarga berilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

[7] maqolada ishga doir mantli masalalar va ular qanday turlarga bo'linishi, ularni yechish bosqichlari, bu kabi masalalarda uchraydigan asosiy qonuniyatlar haqida qisqacha tushunchalar keltirilgan. Ishga doir matnli arifmetik masalalarni yechishda qanday tasdiqlarga e'tibor berishimiz kerakligi haqida mulohazalarni umumlashtirib, mavzu bo'yicha masalalar yechimlari namuna sifatida keltirilgan. Keltirilgan tasdiqlar va mulohazalar bilan yechilgan masalalar o'quvchilar hamda fanni mustaqil o'rganuvchilarga matnli masalalarni qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishga yordam berishi ta'kidlangan.

[8] maqolada talabalarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun bir qator nazariy va mantiqiy asoslar taqdim etilgan, ularsiz ko'rsatkichli tenglamalar va tengsizliklarni to'g'ri yechish imkonsizligi ta'kidlangan. Ko'rsatkichli tenglamalarning tipik

variantlari va tengsizliklar, shuningdek, bunday muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

[9] maqolada ta'lim sohasini rivojlantirishda ilg'or tajribalardan foydalanib tengsizliklarni yechishda asosiy bilimlarga ega bo'lish va yechimlarni umumlashtirishda xatolikka yo'l qo'yimaslik uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Algoritmik usul yordamida kasr-ratsional, irratsional, logarifmik va trigonometrik funksiyalarga doir tengsizliklarga oid misollarning yechimi keltirilgan.

[10-14] maqola o'quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida interfaol texnologiyalar samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish keng joriy etilayotgani, bu esa o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirishni talab qilishi qayd qilingan. Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarga mo'ljallangan ko'nikmaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga ta'lim maskanlarida malakali, professional shaxsga aylanish imkonini beradi. Interfaol usullar katta vaqt va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga qaratilganligi, o'quvchiga nazariy bilimlarni o'rgatish, muayyan faoliyat turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash, axloqiy fazilatlarini shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish va baholash katta mahorat va epchillikni talab qilishi haqida so'z yuritilgan.

2.Asosiy qism. Bizga maktab matematika kursidan yaxshi ma'lumki, "Bir noma'lumli birinchi darajali tenglamalarni yechish" mavzusi "Tenglama va uning ildizi" mavzusidan keyin keladigan mavzu bo'lib, o'quvchilar tenglama va tenglamaning ildizlari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lganlar. Bunda yangi mavzu bayoniga o'tishdan oldin o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun "Svetafor" metodidan foydalanamiz.

Bunda o'quvchilarni uch guruhga bo'lamiz, guruhlarga savollar beriladi va natijalar a'lo, yaxshi va qoniqarli kartochkalari bilan baholanadi.



Tezkor savollar:

1-guruh.

1. Tenglama deb nimaga aytiladi?
2. $5x + 2 = 5x + 9$ tenglama ildizga egami?
3. $4(x - 8) = 16$ va $x - 8 = 4$ tenglamalar teng kuchlimi?

2-guruh.

1. Tenglamaning ildizi deb nimaga aytiladi?
2. $435 - 3y = 3y$ tenglama ildizga egami?
3. $\frac{3x}{5} = 21$ va $0,3x - \frac{1}{2} = 10$ tenglamalar teng kuchlimi?

3-guruh.

1. Tenglamani yechish deganda nimani tushunasiz?
2. $-4x + 91 = 92 - 4x$ tenglama ildizga egami?
3. $1,1x = 4$ va $11x - 40 = 0$ tenglamalar teng kuchlimi?

O'quvchilar ushbu savollarga javob berishadi, o'qituvchi o'quvchilarni javoblarini tinglab, javoblariga qarab yuqorida keltirilgan kartochkalarni ko'rsatadi.

Bu metoddan foydalanishning afzalliklari o'quvchilar fikrini ochiq namoyon qilishadi, o'tgan mavzuni qay darajada tushunganliklarini bilib olish mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilgach, yangi mavzu bayoniga o'tishi mumkin.

$ax = b$ ko'rinishidagi tenglama **bir noma'lumli chiziqli tenglama** deyiladi. Bunday tenglamalar xossalari yordamida yechiladi.

1-xossa. Tenglamaning istagan hadi ishorasini qarama-qarshisiga o'zgartirib, uning bir qismidan ikkinchi qismiga o'tkazish mumkin. 1-xossa qo'shiluvchilarni, ularning isholarini qarama-qarshisiga, almashtirib, tenglikning bir qismidan ikkinchidan ikkinchi qismiga olib o'tish mumkinligi kelib chiqadi. Aytaylik, $a = b + m$ bo'lsin. U holda

$$a + (-m) = b + m + (-m); \quad a - m = b.$$

Tengliklarning bu xossalari tenglamalarni yechishda qanday qo'llanishini ko'raylik.

1-masala. $9x - 23 = 5x - 11$ tenglamani yeching.

x son berilgan tenglamaning ildizi, ya'ni x sonki, bunda tenglama to'g'ri tenglikka aylanadi deb faraz qilamiz.

Noma'lum qatnashgan $5x$ hadni "−" ishora bilan tenglikning chap qismiga, − 23 hadni "+" ishora bilan o'ng qismiga olib o'tamiz. Natijada yana to'g'ri tenglik hosil bo'ladi:

$$9x - 5x = 23 - 11.$$

Tenglamaning ikkala qismidagi o'xshash hadlarni ixchamlab,

$$4x = 12$$

tenglamani hosil qilamiz.

Bu tenglamaning ikkala qismnini 4 ga bo'lib, $x = 3$ ekanini topamiz.

Shunday qilib, tenglama ildizga ega, deb faraz qilib, bu ildiz faqat 3 soniga teng bo'lishi mumkinligini ko'rdik. $x = 3$ haqiqatdan ham berilgan tenglamaning ildizi bo'lishini tekshiramiz: $9 \cdot 3 - 23 = 5 \cdot 3 - 11$. Bu to'g'ri tenglik, chunki uning chap va o'ng qismlari birgina 4 soniga teng.

Demak, berilgan tenglama faqat bitta ildizga ega: $x = 3$.

Tenglama yechilishini yozishda 1- masalani yechishdagidek batafsil yozma tushuntirishlarni bajarish shart emas.

Masalan, $5x + 17 = 2x + 5$ tenglamaning yechilishini shunday yozish mumkin:

$$5x + 17 = 2x + 5, \quad 3x = -12, \quad x = -4.$$

Javob: $x = -4$.

2-xossa. Tenglamaning ikkala qismini nolga teng bo'lmagan bir xil songa ko'paytirish yoki bo'lish mumkin.

2- masala. $\frac{5x}{2} - \frac{x-3}{3} = 1 + \frac{x-5}{6}$ tenglamani yeching.

Tenglamaning ikkala qismini kasrlarning umumiy maxrajiga, ya'ni 6 ga ko'paytiramiz. U holda

$$\frac{5x}{2} \cdot 6 - \frac{x-3}{3} \cdot 6 = 1 + \frac{x-5}{6} \cdot 6, \quad 15x - 2(x-3) = 6 + (x-5).$$

Qavslarni ochamiz va o'xshash hadlarni ixchamlaymiz:

$$15x - 2x + 6 = 6 + x - 5, \quad 13x + 6 = x + 1,$$

Bundan $12x = -5, \quad x = \frac{-5}{12}$

Ko'rib chiqilgan misollarda har bir tenglama bitta ildizga ega bo'ladi. Ammo ba'zi hollarda bir noma'lumli tenglama ildizlarga ega bo'lmisligi mumkin yoki cheksiz ko'p ildizlarga ega bo'lishi mumkin. Shunday tenglamalarga misol keltiramiz.

3- masala. $2(x+1) - 1 = 3 - (1-2x)$ tenglama ildizlarga ega emasligini ko'rsating. Tenglamaning ikkala qismini soddalashtiramiz:

$$2x + 2 - 1 = 3 - 1 + 2x, \quad 2x + 1 = 2 + 2x,$$

bundan

$$2x - 2x = 2 - 1, \quad 0 \cdot x = 1.$$

Bu tenglama ildizlarga ega emas, chunki uning 0 dan iborat chap qismi nolga teng, o'ng qismi esa 1 ga teng, ammo 0 ga teng emas.

Javob: tenglama yechimga ega emas.

4-masala. $3(1-x) + 2 = 5 - 3x$ tenglama cheksiz ko'p yechimlarga ega ekanligini ko'rsating.

Tenglamani soddalashtiramiz: $3 - 3x + 2 = 5 - 3x; \quad 5 - 3x = 5 - 3x$. Oxirgi tenglik x ning istagan qiymatida to'g'ri bo'ladi. Demak, x ning istagan qiymati bu tenglamaning ildizi bo'ladi.

Javob: tenglama cheksiz ko'p yechimga ega.

Yangi mavzuni tushuntirgandan so'ng har bir guruhda 5 tadan misollar beriladi va o'quvchilarning hoxishga ko'ra doskaga chiqib misollar ishlashadi va o'quvchilar baholanadi.

1-guruh

1. $11x = 50$;

2. $9x = \frac{2}{5}$;

3. $25x - 1 = 9$;

4. $5x + 3(3x + 7) = 35$;

5. $0,71x + 1,98 = 0,37x - 1,76$;

2-guruh

1. $-9x = 243$;

2. $3x = 2\frac{1}{7}$;

3. $3x - 5 = 10 - x$;

4. $8x - (7x + 8) = 9$;

5. $0,18y - 7,4 = 0,05y - 5,71$;

3-guruh

1. $4x = 0,24$;

2. $\frac{1}{2}x = 3$;

3. $4x + 4 = x + 5$;

4. $8y - 9 + 5 = 12y$;

5. $5(5x - 1) - 2,7x + 0,2x = 6,5 - 0,5x$.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun "Mosini top" metodini qo'llaymiz. Bunda o'quvchilar o'tilgan mavzu yuzasida misollarni yechishadi va chiqqan javobini belgilashadi.

№	Tenglama		Ildizi	Moslik
1	$9x - 1 = 0,8$	A	$x = -12$	
2	$2x = 3x - 7$	B	$x = 0,2$	
3	$5x + 49 = x + 1$	C	$x = -0,25$	
4	$8x = -2$	D	$x = 0,2$	
5	$4(x - 1) = 5(x + 1)$	E	$x = 2,3$	
6	$-5x - 7x = 8x - 46$	F	$x = -9$	
7	$0,5x + 0,6 = 0,7$	G	$x = 7$	

Ushbu metoddan foydalanishning afzallik taraflari, o'quvchilar to'g'ri javoblarni eslashda yoki mantiqiy fikrlab topishda imkon beradi.

Dars so'ngida har bir guruh baholari jamlanib g'olib guruhlar aniqlanadi va e'lon qilinadi, darsga faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.


O'qituvchi o'quvchilarni baholab bo'lgandan keyin uyga vazifa beriladi va mavzuni takrorlab kelish aytiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktab o'quvchilariga Matematika kursining "Bir noma'lumli birinchi darajali tenglamalarni yechish" mavzusini o'qitish jarayonida maqolada keltiriladigan ma'lumotlardan foydalanish orqali darsning o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni bayon qilish, mavzu bo'yicha olingan bilimlarni mustahkamlash qismlarini tashkil etish mumkin. Buning uchun dars davomida turli xil metodlardan foydalanib o'tish kerak. Ushbu maqolada o'tgan mavzuni mustahkamlash uchun "Svetafor" metodidan foydalanilgan. Buning afzallik taraflari o'quvchilarning fikrini bilib olishga imkon beradi. Qiyinchiliklari savollarning javoblari ko'pchilikning fikri bir xil kelsa, mashqga bo'lgan qiziqish yo'qoladi. Yangi mavzuni

mustahkamlashda “Mosini top” metodidan foydalanilgan. Buning afzallik taraflari o‘quvchilar o‘zining bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. To‘laganov T. P. Elementar matematika: Arifmetika, algebra: Ped. in-tlari va un-tlar uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1997. -272 b
- 3.A. Sh. Rashidov Matematika darslarida ta’limning shaxsga yo ‘naltirilgan texnologiyasi. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet
- 4.A.Sh. Rashidov Ijtimoiy-gumanitar ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish. Science and Education №9. C 283-291
- 5.O.O.Халлокова. А.Рашидов Пороговое собственное значение модели Фридрихса. Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3
- 6.A. Sh. Rashidov Interaktivnyye metody pri izuchenii temy "Opredelennyy integral i yego prilozheniya". Nauchnyye issledovaniya. № 34:3. C 21-24
- 7.A. Sh. Rashidov Yoshlar intellektual kamolotida ijodiy tafakkur va kreativlikning o‘rni. Pedagogik mahorat 2021 yil №7. 114-116 bet.
- 8.A.Sh. Rashidov. Matematika fanlaridan talaba yoshlar ijodiy tafakkurini rivojlantirish. Fan va jamiyat №3. C 45-46



ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ БОШҚАРУВИГА ҚАРШИ БЎЛГАН МИЛЛИЙ МУХОЛИФ ТАШКИЛОТЛАР

Рашидов Ойбек Расулович

*Тошкент давлат иқтисодиёт университети,
“Ижтимоий фанлар” кафедраси профессори,
тарих фанлари доктори (DSc)*

Аннотация. Мақолада Ўзбекистон ССРда совет бошқарувиغا қарши бўлган миллий муҳолиф ташкилотлар фаолияти ўрганилган. Муаллиф томонидан совет жазо органларининг “Миллий Иттиҳот”, “Миллий истиқлол”, “Ғайратчилар” ҳамда “хидиралиевчилик”, “қосимовчилик”, “иноғомовчилик” ва бошқа “аксилинқилобий” ҳаракатлар баҳонасида миллатнинг илғор қисмини жисмонан йўқ қилганлиги тарихий манбалар асосида очиқ берилган.

Калит сўзлар: Партия, большевик, миллий зиёлилар, жади́дчилик, миллатчилик, шовинизм, маҳаллийлаштириш, ғуруҳбозлик.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОППОЗИЦИОННЫЕ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОТИВ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ В УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР

Аннотация. В статье рассматривается деятельность национальных оппозиционных организаций, выступавших против советской власти в Узбекской ССР. Автор на основе исторических источников выявил, что советские уголовные власти физически уничтожали передовую часть нации под предлогом «Национального союза», «Национальной независимости», «Энтузиасты» и «хидиралиевщины», «касимовщины», «иногамовщины» и другие «контрреволюционные» действия.

Ключевые слова: партия, большевик, национальная интеллигенция, джадидизм, национализм, шовинизм, локализация, групповщина.

NATIONAL OPPOSITION ORGANIZATIONS AGAINST THE SOVIET AUTHORITY IN THE UZBEKISTAN SSR

Annotation. The article examines the activities of national opposition organizations that opposed Soviet power in the Uzbek SSR. The author, based on historical sources, revealed that the Soviet criminal authorities physically destroyed the advanced part of the nation under the pretext of “National Union”, “National Independence”, “Enthusiasts” and “khidiraliyevism”, “kasimovism”, “inogamovism” and other “counter-revolutionary” actions.

Key words: party, Bolshevik, national intelligentsia, Jadidism, nationalism, chauvinism, localization, groupism.

Большевикларнинг ўлкада юритган адолатсиз сиёсати миллий зиёлиларни Туркистон миллий бирлиги ғоясини олға суришларига олиб келган. Натижада Ўрта Осиё ва Қозоғистон ҳудудида махфий миллий аксилкоммунистик ҳаракат

марказлари вужудга келди. Бундай марказларнинг энг йириги Бухоро шахрида эди. Туркистон миллий бирлиги ғояси фидойилари Кокажон Бердиев, “Алаш Ўрда” вакиллари, қозоқ Хайриддин Болғинбоев, Мухтор Авезовлар ҳам Бухорога келади. Бухородаги “Бухоро истиқлоли”, Тошкентдаги “Миллий иттиҳод”, Қозоғистондаги “Алаш Ўрда” ва бошқа миллий озодлик ҳаракатлари марказларини бирлаштирган – Туркистон миллий бирлиги махфий ташкилоти ташкил топади. Унинг етти бандлик “Умумплатформаси” – ҳаракат дастури ҳам қабул қилинди ва уни А.З.Валидий бошқарди. “Туркистон миллий бирлиги” “Ўрта Осиё мусулмон халқ жумҳурияти” деб ҳам номланиб, у ўз атрофига Туркистон миллати фидойиларининг йирик вакилларини тўплайди [1].

Туркистон миллий бирлигининг ҳаракат дастури миллий мустақиллик, демократик республика, иқтисодий бошқарув, Европа андозаларидаги маърифат, дин эркинлиги, уни дунё ишларидан ажратиш ғояларига таянган эди. 1921 йил бошида Анвар пошо худди шу ғояни Москвада Ленин билан бўлган учрашувида маъқуллашиб, келажакда шу асосда бутун ислом оламида социалистик тузумга монанд бир давлат андозасини Бухоро намунасида яратишга ваъда қилган эди. Шунинг учун ҳам унга Марказий Осиё бўйлаб сафар қилиб, шу мақсадда раҳбарлар билан мулоқотлар олиб боришга рухсат берилган эди. Аммо, Анвар пошонинг таклифи аслида шўролар ҳокимиятини инкор этувчи ғоя эканлигини большевиклар кечикиб англашди. Шунинг учун ҳам шўро вакиллари 1922 йилнинг баҳорида Анвар пошо билан такрорий музокаралар олиб бориб, фақатгина Бухорода тажриба сифатида мустақил давлат қуришга рухсат берилишини маълум қилишади [2].

Совет ҳокимияти йилларида большевиклар томонидан “аксилінқилобий”, “аксилшўровий” ташкилотлар деб топилган “Кўмак” (1909–1923 йй), “Миллий Иттиҳод” (1921–1925 йй), “Миллий Истиқлол” (1922–1929 йй), “Туркистон Миллий Бирлиги” (1920–1923 йй), “Ботиргапчилар”, “Темурчилар”, “Ғайратлилар”, “Ўн саккизлар гуруҳи”, “Иноғомовчилик”, “Қосимовчилик” кабилар фаолиятида юрт озодлиги ҳамда ўзбек халқининг эркин ва фаровон яшаш учун курашиш ғоялари илгари сурилган эди.

1922 йилнинг май ойидан бошлаб Тошкентда “Кўмак” уюшмаси ташаббуси билан хорижда ўқиш учун талабаларни танлаш ва уларни керакли йўналишлар бўйича ўқув юртларига тақсимлаш ишлари бошлаб юборилади. 1922 йилги маълумотларга кўра, Туркистон ўлкасидан борган ёшлар Россиянинг ўрта ва олий таълим муассасаларида 500 дан ортиқ, 100 нафар Германия ва Туркияда, 35 нафар Бакуда таълим олган[3]. “Кўмак” уюшмасига ғоявий раҳбарликни Фитрат, Чўлпон амалга оширган бўлса, ташкилий жиҳатдан Абдулла Раҳимбоев, Акмал Икромов, Элбек, Қайом Рамазон ва Боту катта ёрдам беради. “Армуғон” журналининг муҳаррири, кейинроқ Москва Текстиль институтини тугатган Саид Аҳмад Назиров 1930 йил 24 декабрдаги сўроқ баённомасида: “1921 йил охирида Тошкентда рабфакда ўқирдик. Талабалар ўртасида четда ўқиш учун кураш ҳаракати пайдо бўлди. Ўшанда икки гуруҳ шаклланди. Биринчи гуруҳ Москва ва Ленинградга ўқишга интилувчи ёшлар, иккинчи гуруҳ эса Германияда таҳсил олмоқни истадилар. Мен ва Абдувосиқ Муҳаммедовлар Москва ва Ленинградга кетадиганлар гуруҳига етакчилик қилдик. Тошкентдаги “Навойи” мактабида ўқитувчилик қилган Тўлаган Мўмин эса Германияга кетувчи ёшларнинг бошлиғи эди. Бизнинг ҳаммамизни “Кўмак” ташкилоти ва ватанга хизмат қилишдек улуғ орзу бирлаштирган эди”, – деб эслайди [4].

1922 йил 28 декабрь куни Туркистон Марказий Ижроия Қўмитаси йиғилишида И.Хидиралиев вақф масаласида маъруза қилади ва шу ерда “Кўмак” ташкилотига ҳам тўхталиб ўтади. “Ўтган йили Фарғонада “Кўмак” ташкилотининг бир чақириғи билан 7 миллиард рубль тўпланди. Бу пулни ким беради, ишчи-деҳқонлар, камбағал инсонлар берапти. Нима учун? Ҳа, чунки улар маорифсиз ҳаёт йўқлигини яхши англайдилар” [5].

Кейинчалик аксилинқилобий ташкилот сифатида “Кўмак” уюшмасига алоқаси бўлган барча зиёлилар қатағон этилди. Большевиклар томонидан диний илм “хурофот” деб аталган бир пайтда ёшлар дунёвий илм олиш учун ушбу уюшма орқали Россия ва Германияда таълим олишни мақсад қилган эдилар. Бироқ улар илм олиб ўз юртига қайтгандан сўнг большевиклар томонидан

таъқибга олиндилар. Масалан, яна бир қатағон қурбони бўлган, “Кўмак” етакчиларидан бири Абдувосиқ Муҳаммедов 1938 йил 10 мартдаги сўроқ баённомасида: “Талабаларни чет элларда ўқитиш орзуси 1920 йилги “Чиғатой гурунги”да ҳам бор эди. 1922 йил “Кўмак” тузилгач, амалий ишлар бошланди. Ташкилотнинг раҳбарлари Фитрат ва Ботуларнинг талаби билан кўплаб талабалар аҳолидан пул тўплашга жалб этилди. Мен ҳам Пискент туманига бордим ва одамлардан “Кўмак” фойдасига пул йиғиб келдим. Бу пулни Германияда ўқувчи ёшларга юборганмиз”, – деган эди [6].

“Кўмак” уюшмаси ўқувчиларга ҳар томонлама ёрдам бериш учун жиддий курашган. Ўлкада маориф тарқатиш мақсади билан очилган “Нашри маориф” жамияти аъзолари ҳисобланган зиёлилар большевиклар томонидан “тарбияни заҳарловчилар” деб аталди. Мазкур уюшма аъзолари Мунаввар Қори, Сайид Носир Миржалилов, Толибжон кабилар “тўдачи”, “турухчи” ва “миллатчи” сифатида айбландилар. Мазкур айбловда ушбу зиёлилар совет мактаби ва дорилфунунларидаги таълимни “коммунизм касали” деб атаганлиги, ундан қутулиш чораси сифатида Европадаги таълимни “маданият каъбаси” тарзида қабул қилмоқчи бўлганликлари келтирилган [7].

Большевиклар зиёлиларни социализм қурилишининг фаол курашчилари қаторида бўлиши кераклигини таъкидлаганлар. Бироқ, аксарият миллий зиёлилар яширин ташкилотлар тузиб, совет тузумига қарши қуролли кураш олиб бораётган кучлар билан биргаликда она-Ватанни босқинчилардан тозалашни мақсад қилган эдилар. Аксилинқилобий ташкилот деб юритилган “Миллий иттиҳод”нинг ғоявий-мафкуравий кураши унинг 18 моддадан иборат дастурида акс эттирилган. Мазкур дастурнинг биринчи моддаси пролетариат диктатурасига қарши Россия пролетариатини собиқ Туркистон минтақасидан ҳайдаб чиқаришга бағишланган: “Ғайри турк бўлган миллатларни Туркистондан ҳайдаб чиқариб, ўрнига (пролетариат диктатурасининг шакли бўлган шўролар ҳукумати ўрнига) мустақил ҳукумат қурилажак” [8].

Шунингдек, дастурнинг иккинчи моддасида Туркистон ўлкаси мустақиллиги йўлида Англия билан ҳамкорлик қилиш лозимлиги келтирилган:

“Агар мустақил Туркистонни сиёсий, ижтимоий, иқтисодий томондан идора қилиш туркийлар учун оғирлик қилса, Англияга 20 йилга концессияга (ижарага) бериш”[9]. Бу жойда концессиянинг шартлари келтирилиб, 20 йил ичида Англия Туркистоннинг хомашёсини ташиб кетади (эксплуатация қилади) ҳамда Туркистонга техника ўрнаштириб беради. Бу масалада Англияга махсус вакиллар юборилиб, келишувлар масаласи муҳокама қилинган.

Дастурнинг учинчи моддасида: “Ғайри турк миллатлар, ҳукумат тузиш учун фойдали ишда бўлсалар уларга бир йилгача Туркистонда қолишга рухсат берилади. Аммо руслар (рус пролетариати) мустақил ҳукумат қурилиши билан Туркистондан чиқиб кетишлари керак” дейилади [10].

Туркистон минтақасидаги барча зиёлилар ва миллий кадрлар большевиклар олиб бораётган нотенг сиёсатдан норози эдилар. Ўзбек зиёлиларидан бири Мирза Раҳимов большевикларнинг мустамлакачилик сиёсати ҳақида қуйидаги фикрни билдиради: “Туркистоннинг иқтисодий ва сиёсий жиҳатдан заифлашишини истаб Марказ бутун Турон халқларини айрим майда қабилаларга ажратди. Ўзбекистон мустақил давлат бўлишига ишонмайман” [11].

Алихонтўра Соғуний “Туркистон қайғуси” асарида большевикларнинг ўлка бойликларини талаб кетаётганлиги, руслаштириш сиёсати туфайли маҳаллий халқнинг йўқолиб кетиш хавфи остида қолганлиги хусусида фикр билдирган. У русларнинг Туркистон минтақасидаги асл мақсади ва мафқурасини қуйида келтирилган мақол билан шарҳлайди: “Итингни оч сақла, орқангдан эргашсин”[12]. Рус шовинизми халқни оч сақлаш йўли билан уни орқасидан эргаштирмоқчи бўлди. Ўзбек халқи озиқ-овқатга Марказга қарам қилиниб, республика хомашё базасига айлантирилди.

Миллий зиёлилардан бири кейинчалик “иноғомовчилик” ҳаракати, яъни аксилшўровий яширин сиёсий гуруҳ раҳбари сифатида айбланган Раҳим Иноғомов большевикларга қарши матбуотда мафқуравий кураш олиб борган. У “Қизил Ўзбекистон” газетасининг туркум сонларида “Зиёлилар тўғрисида бизнинг вазифамиз” деб номланган мақолалари орқали миллий ўзбек зиёлиларининг октябрь инқилобий ўзгаришига ва ундан кейинги позицияларини

белгилаш ҳамда коммунистик партиянинг зиёлиларга бўлган муносабатини баён этиб, куйидаги фикрларни келтирган эди: “Миллий зиёлилар октябрь инқилобини бутун муҳаббати ва бутун жони-тани билан кутиб олмаган бўлса ҳам, миллат озодлиги учун мустақил ўзбек ҳукумати ва ўзбек мамлакатини тузишда олдинги сафда туриб ҳаракат қилдилар” [13].

Раҳим Иноғомов Ўзбекистон Маориф комиссарлигида фаолият юритган пайтида Ўрта Осиё бюросининг Туркистонга васийлигини тугатишни қатъий талаб қилган эди. Матбуотда унинг фаолиятига сиёсий тус берилиб, кескин танқидлар бўлган эди: “Ўзбек миллати ва ватанга бўлган муҳаббатини Масковга сотмаган туркистонликлар (иноғомовчилар) ўз болаларини миллий мактабларда тарбиялайдилар. Бу большевиклар томонидан юритилган “руслаштириш” сиёсатининг муваффақият қозонишига тўсқинлик қилади” [14].

Р.Иноғомов “Миллий зиёлилар кимлар?”, уларнинг “миллат озодлиги” деган ғоя ва тилаклари нималардан иборат эканлиги ҳақида фикр-мулоҳазаларини келтириб ўтган. Бу мулоҳазаларга қарши А.Икромов ва Абулхайлар большевиклар тарафида туриб ўз фикрларини билдирганлар: “Агар Иноғомов ўзгариш тузилишларининг биринчи сафида, биринчи даврларида большевиклар томонига кўчган бир мунча зиёлиларни кўрсатмоқчи бўлса (ҳолбуки, Иноғомов мақоласида зиёлиларнинг бир мунчаси демайди, “миллий зиёлилар” деб умум зиёлиларни олади) бунда ҳам масала Иноғомов айтганича эмас, зиёлиларнинг бир мунчасини большевиклар томонга ўтиши ҳам буларнинг фирқа томондан қабул қилинишига шундай қараш керакки, булар ўзларининг шу ўтишлари билан ўзларининг эски фикрларидан тамоман қайтиб, йўқсуллар инқилоби, коммунист фирқасига чинакам қабул қилинган бўладилар. Ёки бўлмаса йўқсуллар инқилобидан ўзларининг “миллат озодлиги” деган эски мақсадларига қайталаниш учун бизнинг томонга кўчган бўладилар” [15].

Большевиклар тарафига ўтган шўро зиёлилар фаолияти ҳам назоратда бўлганлигини юқоридаги фикр тасдиқлаб турибди. Улар эски мақсади ва ғояларига қайтиши мумкин ёки яширин манфаатлари учун бизнинг орамизга кириб олган деган қараш большевикларда доим сақланиб турди. Шўро зиёлилари

кенг халқ оммасига мурожаат қилиб, икки йўлдан бирини қабул қилиш лозимлигини ва ўзларини халқни нодонликдан қутқариш учун курашадиган инқилобчи қилиб кўрсатганликлари маълум бўлади.

И.В.Сталин ўзининг нутқларидан бирида шундай деган эди: “Шуни эсда тутиш лозимки, Марказдан узоқ ўлкалар республика ва вилоятлардаги партия ташкилотларимиз фақат миллатчиликни енга олсаларгина ўшанда ҳақиқий марксчи бўла оладилар”[16]. “Миллий истиқлол” яширин ташкилоти аъзолари ҳисобланган зиёлилар 1928 йилдан кейин большевикларнинг тазйиқига учрай бошлади. Мунаввар Қори Абдурашидхонов ташкилотнинг ҳамма съездларида беш кишилик раёсат (раис, котиб, хазинабон, икки аъзо) тузилганлиги ҳақида ахборот берган. Шу билан бирга у эски ташкилотнинг дастури ҳозирги шароитга тўғри келмаслиги ва янги ташкилотга ГПУни чалғитиш мақсадида кўпроқ ёшларни жалб қилиш зарурлигини айтган ва ўз сўзи якунида шундай деган: “Ҳозир мактабларда миллий руҳ қолмади. Бу масалада ҳеч қандай иш қилинмаяпти. Агар аҳвол шундай давом этаверса ўзбекларда миллий руҳ йўқолиб кетади. Ўзбекистон руслар оёғи остида қолади” [17].

Совет ҳокимиятига мухолифатда бўлган миллий зиёлиларнинг яширин ташкилотларидан бири 1929–1930 йилларда Самарқанд шаҳрида Ўзбекистон ССР Маориф халқ комиссарлиги ходимларининг бир гуруҳи томонидан ташкил этилган “Ғайратлилар” ташкилоти эди. “Ғайратлилар” гуруҳи ўз таркибига миллий зиёлиларнинг кўзга кўринган вакиллари, аксарият ҳолларда ўқитувчи ва талабаларни жалб қилган. Шунингдек, гуруҳ сафига совет ҳокимиятининг раҳбарлик лавозимларида ишлаган, бироқ 1929–1930 йиллардаги тозалаш чоғида “ёт унсурлар” сифатида партиядан ўчирилган, катта тажриба ва салоҳиятга эга совет тузумининг кирдикорларини яхши тушуниб етган маҳаллий миллат вакиллари ҳамда бир гуруҳ ижодкорлар кирган. “Ғайратлилар” ўз фаолиятини “Ғап”лар орқали олиб борган. “Ғап”лар ҳафтада бир маротаба ташкил этилган. Доимий раис Боту бўлган, баъзан раислик вазифасини Собир Қодиров ҳам бажариб турган [18].

1930 йил 15 июлдан 1 августга қадар ОГПУ “тройки” “Ғайратлилар” ташкилоти устидан ўтказган тергов жараёнида Боис Қориев Олтой қуйидаги кўрсатмани беради: “Бизнинг “Ғайратлилар” ташкилотимиз ўзининг сиёсий тузилмасига кўра советларга қарши ва аксилинқилобий ташкилотдир. Шу боис уни партия ичидаги троцкийчилар, ўнғлар ёки Ўзбекистон шароитидаги иноғомовчиларга қиёслаб бўлмайди. Унинг дастури партия андозасида эмас, балки партия ва совет ҳокимиятига қарши тузилган. Олдинги кўрсатмаларимда қайд этиб ўтганимдек, дастурий кўрсатмаларимиз ҳеч қерда ёзма қайд этилмаган, уни ўзимиз ёддан билганмиз. Биз ўз олдимизга ёш миллатпарвар кадрлар тайёрлашни мақсад қилганмиз. Совет Иттифоқидан Ўзбекистонни тўлиқ ажратиб олиш бизнинг бош мақсадимиз бўлган. Мустақилликка эришиш учун, бизнинг фикримизча, биринчи навбадта миллий давлат тараққиётини таъмин этувчи миллий ғоялар билан қуролланган миллатпарвар кадрларни тайёрлаш лозим. Ҳокимиятни ўз қўлимизга олиш, уни ҳимоя қилиш учун ёшларни ҳарбий мактабларга кўплаб жойлаштириб махсус ҳарбий билимлар олишга эришишимиз лозим. Қисқача қилиб шуни таъкидлаш мумкинки, бизнинг ташкилот ўз олдида совет ҳокимиятини ағдариб, Ўзбекистон буржуа-демократик республикасини тузишни мақсад қилган эди” [19].

Хулоса қилиб айтганда, миллий зиёлилар яширин сиёсий ташкилотларда бирлашиб, большевикларнинг мустамлакачилик сиёсатига қарши мафкуравий кураш олиб борганлар. Ушбу мафкуравий кураш асосан матбуотда, таълим тизимида, адабиётда намоён бўлди. Бироқ, большевиклар миллий зиёлилардан мафкуравий курашда енгилб, жисмоний қийноқ ва қатағонлик йўлини тутдилар. Большевиклар миллий манфаатларга хизмат қилган зиёли ва кадрларни турли-туман сохта ўйлаб топилган гуруҳлар тузишда айбладилар. Совет жазо органлари томонидан “Миллий Иттиҳот”, “Миллий истиқлол”, “Ғайратлилар” ҳамда “хидиралиевчилик”, “қосимовчилик”, “иноғомовчилик” ва бошқа “аксилинқилобий” ҳаракатлар баҳонасида миллатнинг илғор қисми жисмонан йўқ қилинди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

- ўминов Т. Туркистон икки аср гирдобиди. – Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2013. –Б.106–107.
- аймов Н. Маърифатга бахшида умр (тарихий қисса). – Бухоро: “Дурдона”, 2018. –Б.143.
- з МА, 17-фонд, 1-рўйхат, 1082-йиғма жилд, 6-варақ.
4. Ирзаев Б. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. – Тошкент: “Akademnashr”, 2018. –Б.12–13.
- з МА, 17-фонд, 1-рўйхат, 1082-йиғма жилд, 7-варақ.
- рзаев Б. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. – Тошкент: “Akademnashr”, 2018. –Б.13–14.
7. Зиё Саид. Зиёлилар масаласи тўғрисида // “Қизил Ўзбекистон”. 1926 йил 6 май, 100-сон.
8. Фарғона зиёлилари партиямиз йўлида // “Қизил Ўзбекистон”. 1930 йил 10 ноябрь, 263-сон.
9. Фарғона зиёлилари партиямиз йўлида // “Қизил Ўзбекистон”. 1930 йил 10 ноябрь, 263-сон.
10. Фарғона зиёлилари партиямиз йўлида // “Қизил Ўзбекистон”. 1930 йил 10 ноябрь, 263-сон.
11. Султонғалиевчилик ва ўзбек национал фашизми // “Қизил Ўзбекистон”. 1930 йил 27 август. 201-сон.
- лихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. (I–II қисмлар). Нашрга тайёрловчи Қутлуғхон (Эдикут) Шокиров. – Тошкент: “Sharq”, 2020. –Б.73.
- иёлилар масаласи тўғрисида (мубохаса йўли билан) // “Қизил Ўзбекистон”. 1926 йил 27 январь, 23-сон.
14. Ўзбек адабиёти ва чиғатойчилик // “Қизил Ўзбекистон”. 1929 йил 15 май, 112-сон.
- иёлилар масаласи тўғрисида (мубохаса йўли билан) // “Қизил Ўзбекистон”. 1926 йил 27 январь, 23-сон.
16. Фирқа учун кураш // “Қизил Ўзбекистон”. 1927 йил 7 январь, 6-сон.
- байдуллаев Ў. Ўзбекистонда 20–30 йилларда мустабид тузумга қарши миллий муҳолифат ҳаракати (маҳаллий зиёлилар фаолияти мисолида): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Андижон. –Б.51–52.
- ошимов С. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистондаги қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917–1936 йиллар). – Тошкент: “Академнашр”, 2018. –Б.152–
- ошимов С. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистондаги қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917–1936 йиллар). – Тошкент: “Академнашр”, 2018. –Б.153.

Umumta'lim fanlarini o'qitishda kontekstli yondashuv

Bozorbayev Ilyosbek Israilovich

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishda "kontekst o'qitish" metodini joriy qilish imkoniyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, kompetensiya, kontekst, kontekstli o'qitish, o'qitish modellari(semiotik, imitatsiya, ijtimoiy), didaktik metodlar.

Контекстный подход в обучении общеобразовательных предметов

Бозорбаев Илёсбек Исраилович

Институт переподготовки и повышения квалификации кадров системы

высшего образования, базовый докторант

Аннотация. В статье раскрыта возможность внедрения метода «контекстного обучения» в педагогической практике при изучения физики в общеобразовательных школах

Ключевые слова: образование, компетенция, контекст, контекстное обучение, обучающие модели (семиотическая, имитационная, социальная), дидактические методы.

Contextual approach in teaching general education subjects

Institute for Retraining and Professional Development of Higher Education

Personnel, basic doctoral student

Abstract. The article reveals the possibility of introducing the method of "contextual learning" in pedagogical practice when studying physics in secondary schools

Key words: education, competence, context, contextual learning, learning models (semiotic, imitation, social), didactic methods.

O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo ta'limida innovatsion o'qitish metodlari jadal shakllana boshladi. Jumladan, ko'plab olimlar tomonidan muammoli o'qitish metodi (V.Okon, I.Ya.Lerner, S.I.Brizgalova, A.M.Matyushkin, V.T.Kudryavtsev, M.I.Maxmutov); loyiha metodi (A.I.Savenkov, A.V.Leontovich, L.E.Osipenko); tadqiqot metodi (A.I.Savenkov, A.V.Leontovich, A.S.Obuxov, N.G.Alekseyev); kontekstli o'qitish metodi (A.A.Verbitskiy, O.G.Larionova) o'rganilgan. Albatta bu o'qitish metodlarining ta'lim jarayonida qo'llanilashi ta'lim

oluvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishda muhim sanaladi. Biz mazkur maqolada faqat kontekstli o'qitish metodining ta'limdagi ahamiyati hamda undan fizika fanini o'qitish misolida qarab chiqamiz.

Kontekst (contextus) – lotincha so'z bo'lib, qo'shilish, ulanish, bog'lanish kabi ma'nolari anglatadi [1]. Demak, har qanday kontekstda aniq bir obyekt va uning atrofigi hodisalar bilan qandaydir bog'langan bo'ladi. O'qitishning kontekst texnologiyasida o'quv material hayotiy misollarga (yoki tegishli mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha uning kasbiga) bog'lab o'qitilishni nazarda tutiladi. Hozirgi davr ilmiy-texnika taraqqiyotining barcha bo'g'inlar (transport, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, energetika, sanoat)ning rivojlanishida fizika fani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu hol fizika fanini kontekst texnologiyasi asosida o'qitishning imkoniyatini kengaytiradi.

O'qitishning kontekst texnologiyasi A.A.Verbitskiy va uning ilmiy maktabi tomonidan o'tgan asrning 90-yillardan boshlab o'rganilgan. A.A.Verbitskiyning ta'rifiga ko'ra, insonda hayotiy faoliyatining har qanday holatining konteksti, "... bu insonning ichki va tashqi faoliyati tizimi bo'lib, u muayyan vaziyatni idrok etish, tushunish va o'zgartirishga ta'sir qiladi, ya'ni *ichki kontekst* – shaxsning individual psixologik xususiyatlari, bilimi va tajribasiga; *tashqi kontekst* – esa shaxs harakat qiladigan holatning obyektiv, ijtimoiy-madaniy boshqa xususiyatlarga [2].

A.A.Verbitskiy kontekstli o'qitishda uchta (semiotik, imitatsiya, ijtimoiy) o'qitish modeli qatnashishini ta'kidlagan. Ularning har birini izohlaymiz:

- semiotik o'qitish modelida mavzuga oid ma'lumot axborot, jadval yoki grafik tarzida taqdim qilinadi. Bu ma'lumot ta'lim oluvchi tomonidan mustaqil o'zlashtiriladi va yakuniy xulosasi so'zli (yoki yozma) bayon qilinadi;

- imitatsiya o'qitish modelida mavzuga oid ma'lumot nazariy axborot ko'rinishida taqdim qilinadi. O'quvchidan berilgan axborot tahlil qilinishi va berilgan topshiriqqa mustaqil qaror qabul qilinishi kutiladi;

- ijtimoiy o'qitish modelida mavzuga oid berilgan ma'lumotlarning amaliy ahamiyatini tushunishi nazarda tutiladi va uning bajarilishi quyidagi faoliyatlar orqali qabul qilinadi: referat shaklida, loyiha ishi, tadqiqot ishini bajarishi.

O'qituvchi kontekstli yondashuvga ko'ra darsni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

- o'qituvchi o'quvchining yoshi va uning psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv materialini tayyorlashi;
- o'qituvchi taqdim qilayotgan o'quv material o'quvchi shaxsi (yoki jamiyat) uchun ahamiyatli ekanligi;
- o'quvchilarning o'quv faoliyastini faollashtirish (dars boshlanishida motivasiya berish);
- o'quvchilarni qiziqtirish: o'quv materialining mazmuni, kundalik hayot bilan hamda fanlar aro aloqadorligini;
- kommunikativlik (o'qituvchi va o'quvshilar orasida dialogli savol-javob), dars jarayonida birgalikda ishlash;
- muammoli vaziyatlar qo'yish va uni yechish jarayoni;
- dars jarayonini tizimli tashkil etish.

Shuningdek, kontekstli o'qitishda quyidagi didakik metodlar foydalanish dars jarayonida turli darajadagi faollikni hamda o'quvchilarni mustaqil faoliyatga undashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bular; tushuntiruvchi-ko'rsatmali metod; o'quv materialini muammoli tarzda berish; evristik yoki qisman izlanuvchanlik, tadqiqot metodi.

Milliy o'quv dasturda umumiy o'rta talim maktablarida fizika fanining o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu o'quv predmeti ta'lim oluvchilarni nafaqat ushbu fanning asoslari bilan tanishtirish, balki olingan bilimlarni amalda, shu jumladan turli xil hayotiy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish nazarda tutilgan. Maktab o'quvchilari o'zlashtirgan tabiiy-ilmiy bilimlarni amalda, ya'ni hozirda va kelajakda undan foydalana olishi lozim.

Endi kontekstli o'qitishni fizika o'quv fanida "Elektr energiyaga ishlab chiqarish" mavzusi misolida qarab chiqamiz. Avvalom bor o'qituvchi mazkur mavzuga oid axborotlarni (ilmiy jurnallar, internet tarmog'i, darslik, ma'lumotnoma kabi) turli manbalardan oladi. Barqaror rivojlanish maqsadlarida "energiya" masalasi, ekologiyaga va turli energiya manbalari bo'yicha turli dalillarni to'playdi (Insonyat va

tirik mavjudot uchun energiya muammosi global masala ekanligi; insonlar energiya (qadimda ham hozirda ham) turli ko'rinishlaridan foydalanib kelayotganligi (oziq ovqat, issiqlik, yorug'lik va boshqa); biz kundalik hayotimizda eng ko'p elektr energiyasidan foydalanishimiz; insonyat tomonidan elektr energiyasini ishlab chiqaradigan turli xil qurilmalar barpo qilinish, ya'ni suv elektr stansiyalari, issiqlik elektr stansiyalari, atom elektr stansiyalari, quyosh elektr stansiyalari, shamol elektr stansiyasi; ishlab chiqariladigan elektr energiyasining katta qismi yerdan qazib olingan yoqilg'i resurslari vositasida olinishi va boshqa ma'lumotlar).

O'qituvchi o'qitishning didaktik tamoyiliga ko'ra dars mashg'ulotni izchil olib boradi. Dars yakunida o'quvchilar tomonidan erishilgan tabiiy-ilmiy bilimlarini tekshiriladi (og'zaki yoki yozma so'rov, kontekst masala, test). Mazkur topshiriqlar mazmunida o'quvchida bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaga bo'lgan munosabat va qadriyatlar aks etirilishi lozim (masalan. Bu yil sinf xonamizda 6 ta energiya tejankor chiroqlar qo'yildi. Ularning har biri 20W quvvat bilan ishlaydi. Oldin bu chiroqlar o'rnida quvvati 100W bo'lgan chiroqlar sinfni yoritardi. Endi biz qancha (marta) energiya tejami qilamiz?).

XULOSA

2016 yildan boshlab mamlakatimiz ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarorida Davlat ta'lim standarti talablariga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tayanch va fanga oid kompetensiyalar belgilab qo'yilgan [3].

Xususan, fizika o'quv fanini o'qitilishi orqali maktab o'quvchilarda fanga oid uchta kompetensiyani shakllantirish belgilab qo'yilgan. Bular: fizik jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish; tajribalar o'tkazish, fizik kattaliklarni o'lchash va xulosalar chiqarish; fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish. Bizning nazarimizda ijtimoiy biyurtmaga ko'ra fanlarni o'qitishda kontekstli yondashuv nafaqat ta'lim oluvchilarning ilmiy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishda, shuningdek, ularda intellektual qobiliyatlar va texnik ijodiy tayyorlikni rivojlantirishda

hamda o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. - 2-jild. www.ziyouz.cjm.kutubxonasi
2. Вербицкий А.А., Ларионова О.Г. Категория «контекст» в психологии и педагогике. М: Publishing Hous Logos, 2010. – 300 с.
3. “Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-aprelda-gi 187-son Qarori. <https://lex.uz/docs/3153714>.
4. Пурышева Н.С., Шарова Н.В., Ромашкина Н.В., Мишина Е.А. Сборник контекстных задач по методике обучения физике: Учебное пособие для студентов педагогических вузов. – М.: Прометей, 2013. – 116с.

TA'LIM KLASTERI ILMIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Egamberganov Izzatbek Shavkat o'g'li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya. Maqolada “ta’lim klasteri” mohiyati izohlanilgan hamda ta’lim muassasalari xususiyatlaridan ko‘ra ta’lim klasterini joriy etish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: klaster, ta’lim klasteri, klaster yondashuv, klaster subyektlari, kompetentli yondashuv, ta’lim tizimi.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ КЛАСТЕР КАК НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОБЛЕМА

Эгамберганов Иzzатбек Шавкат ўгли
Чирчикский государственный педагогический университет, базовый докторант

Аннотация. В статье уточнено понятие образовательного кластера, а также проанализирована научно-исследовательская работа по внедрению образовательного кластера в учебные заведения.

Ключевые слова: кластер, образовательный кластер, кластерный подход, субъекты кластера, компетентностный подход, система образования.

EDUCATIONAL CLUSTER AS A SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL PROBLEM

Egamberganov Izzatbek Shavkat o'g'li
Chirchik State Pedagogical University, basic doctoral student

Abstract. The article clarifies the concept of educational cluster and analyses the research work on the implementation of educational cluster in educational institutions.

Key words: cluster, educational cluster, cluster approach, cluster subjects, competence approach, education system.

Jahonning ko‘plab rivojlangan mamalakatlarda ishlab chiqarish, og‘ir va yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarida klaster modeli keng tatbiq qilinmoqda. Mamlakatimiz raxbari qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan tadbirdagi nutqida agrar va engil sanoat sohalarini klasterlashtirish g‘oyasini ilgari surgan [1-2].

“Klaster” atamasi inglizcha “cluster” so‘zidan olingan bo‘lib – “to‘plam”, “tarmoq”, “guruh” kabi ma’nolarni anglatadi. Л.П. Крысин “Толковый словарь иноязычных слов” izohli lug‘atida klaster – ixtiyoriy obyektlarning guruhi bo‘lib, shu

guruhlar uchun umumiy bo'lgan u yoki bu xususiyati jihatidan yaxlit jamlanmasi sifatida tavsiflangan [3].

O'zbek tili izohli lug'atiga "Klaster" atamasi kiritilmagan. Turli soha vakillari tomonidan "klaster" atamasi turlicha ta'lqin qilingan. Amerikalik iqtisodchi, Garvard biznes maktabi professori M.Porter tomonidan ilk bor "klaster" atamasi qo'llanilgan. M.Porter klasterni geografik jihatdan qo'shni bo'lgan, bir-biri bilan bog'langan, muayyan sohada faoliyat olib boradigan korxona va tashkilotlarning o'zaro mafaatdor birlashuvi deb tavsiflagan [4].

T.V.Sixan iqtisodiyot sohasida klaster bir mintaqada faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish tarmoqlari, biznes tuzilmalar, ilmiy va ta'limiy tashkilotlarning hamkorlikda rivojlantirish maqsadida birlashuvi deb izohlaydi [5].

Sotsiolog V. V. Taraschenko tadqiqot ishida hududiy klasterlar o'zaro o'xshash parametrli elementlarning bir guruhni tashkil qilishi hamda bir-biriga yaqinligiga ko'ra teng huquqli bo'lib birlashgan tarmoqlar to'plami deb ta'lqin qilgan [6].

Norvegiya, Fillandiya, Shetsiya kabi bir qator Evropa mamlakatlaridagi ishlab chiqarish korxonalari klaster yondashu asosida faoliyat yuritmoqda hamda mazkur mintaqalarda rivojlanish tabora o'sib boryapti. 2023 yilda Evropa klaster hamkorlik platformasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra Evropa mamlakatlarida 500 dan ortiq klasterlar faol ishlab chiqarishda ishtirok etmoqda. Shuningdek, mazkur mamlakatlarda ta'lim tizimida klasterlashuv amaliyotga joriy qilingan.

Ta'lim klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari ko'plab rossiylik olimlari tomonidan o'rganilgan. Jumladan, V.V Tarasenko pedagogik ta'lim klasterini "muayyan jug'rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlar va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizmi" deb talqin qilgan [7].

Iqtisodchi E A. Manuylova fikriga ta'lim klasteri – bu ma'lum bir geografik hududdagi, resurslarni etkazib beruvchi korxonalar va ish beruvchilar, innovatsion tizim elementlari, shuningdek, faoliyati bir-birigaa yaqin sanoat va mintaqaviy

innovatsion tizimni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarni o'z ichiga barcha darajadagi ta'lim muassasalari to'plamidir [8].

T. V. Fadina fikriga ko'ra ta'lim klasterini kompetentsiyaga asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan o'zaro bog'liq bo'lgan ish beruvchi korxonalar oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, o'rta umumiy ta'lim muassasalari ularning faoliyati bilan bog'liq tashkilotlar subyektlarning ehtiyojlarini qondiradigan manfaatdor maqsadida birlashadilar [9].


Yuqorida keltirilgan ta'riflarda ta'lim klasterini ish beruvchi(maktablar, ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy tadqiqot makazlari) bilan ta'lim muassasasi o'rtasidagi aloqador dasturlar majmuasi orqali birlashuvi hamda ta'lim klasterining bosh maqsadi bu – ta'lim xizmatlarni amalga oshirish deb tavsiflangan.

Umumiy maqsad atrofida subyektlarning o'zaro aloqadorligi orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda ta'lim klasteri ahamiyati haqida ko'plab pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarida e'tirof qilingan [10-18].

M.V.Goremikoning ilmiy tadqiqot ishida hududlarning ta'lim sifatini klaster yondashuv asosida boshqarish muammosi o'rganillangan. Tadqiqotchi hudud-larning geografik joylashushi, tabiiy resurslari, sanoat va ishlab chiqarish korxonalari mavjudligiga ko'ra hamda ijtimoiy ehtiyojga ko'ra ta'lim sifatini boshqaruvining klaster modelini taklif qilgan. Mazkur model bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lgan ikki komponentdan iborat: invariant qism (maqsadli blok va natijaviy (baholash) blok) va variativ qism(tashkiliy-loyihalash blok va prosessual-faoliyatli blok). Hududlarda ta'lim sifatini klaster yondashuv asosida boshqarish modelining sxematik ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan [10].

N.Yu. Safonseva tadqiqot ishida klaster yondashuv asosidauzluksiz kasbiy ta'lim sharoitida pedagogik ta'lim muassasalarni loyihalashtirishning konseptual metodologik asoslari o'rganilgan. Tadqiqotchi tomonidan pedagogik muassasalarni klaster yondashuv asosida loyihalashtirish konsepsiyasini ishlab chiqilgan. Mazkur konsepsiyada o'quv dasturlarni loyihalashtirish boyicha – dasturiy klaster, mutaxisning kasbga erishtirish trayektoriyasi boyicha – dinamik klaster, fan

asosining tarkibiy qismi ko‘ra – didaktik va diagnostik-kvalimetrik metodlarni jamlagan o‘qitishning motivatsion metodik bloklarini o‘z ichiga olgan [11].



E.G. Garayshina tamonidan ta'lim klaster sharoitida kasbiy ta'limning hududiy modelini (kimyo ta'limi yo'nalishida) ishlab chiqilgan va uning ta'limiy, rivojlantiruvchi va kasbiy-adaptiv bloklarini klaster yondashuv asoslangan. Tadqiqot ishi hududlarda mutaxasislarni soni va sifati bo'yicha ijtimoiy ehtiyojni hal etishga qaratilgan. Shunindek, tadqiqotchi tomonidan iqtisodiyotdagi raqobat-lar, mehnat bozorida ishlab chiqaruvchi tomonidan qo'yilayotgan talablarga ko'ra mutaxassisga samarali tayorlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganilgan [12].

A.A. Moshtakov tadqiqot ishida klaster yondashuv asosida o'rta maxsus kasbiy ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosi o'rganilgan. Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan "ta'lim-ichlab chiqarish" klasteri tarkibiy tuzilishi va mazmuni oydinlashtirilgan [13]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4623-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi 213-son qarorining 5-punktida Chirchiq

pedagogika universiteti jamoasiga pedagogik ta'lim innovatsion klasteri amaliyotga joriy etish belgilangan.

“Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy–metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy–ilmiy–innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir. Pedagogik ta'lim rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi” [14].

Mamlakatimiz olimlari G.I.Muxamedov, U.N.Xodjamkulov, S.A.Tosh-temirova, D.E.Qarshiyeva, G.N.Sharipova va bosqalarning tadqiqot ishlarida ta'lim klasterining o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasterning ilmiy nazariy asosi U.N. Xodjamkulovning tadqiqot ishida keng spektrda yoritilgan. Tadqiqotchining ilmiy ishida ta'lim sohasida tatbiq etilayotgan muallifning klaster tuzilmasi, ya'ni “Maktab-laboratoriya” innovatsion maydonchasi ta'lim tizimiga xos bo'lgan konseptual, psixologik-pedagogik, tashkiliy boshqaruv kabi tarkibiy qismlarni o'zida jamlagan ta'lim klasteri ta'lim oluvchilarda nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlashda, oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyati va tajribasidan umumiy o'rta ta'lim maktablarida mavjud muammolarni bartaraf qilishga foydalanish ta'lim samaradorigini oshiruvchi richag sifatida e'tirof qilinadi. Shuningdek, tadqiqochi tomonidan innovatsion ta'lim klasteri doirasida “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonlarida pedagogik ta'lim loyihalarni amalga oshirishning metodologik asoslari ishlab chiqilgan [15].

D.E.Qarshiyeva tadqiqot ishida ta'lim klasteri sharoitida kompetentlikka asoslangan maktab malakaviy amaliyotining (adaptive-psixologik malakaviy amaliyot, kasbiy – tayanch malakaviy amaliyot, kasbiy mutaxassislikka yo'naltirgan amaliyot) bosqichlarida talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan kompetensiyalar sinflashtirilgan hamda klaster yondashi vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik asosi o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan klaster yondashi vositasida kasbiy kompetentlikka asoslangan maktab malakaviy amaliyotini boshqarish modeli va uni amaliyotga joriy etishning uslubiy ta'minoti "nazariya+amaliyot = bir butunlik" tamoyiliga tayanilgan holda ishlab chiqilgan. [16].

G.N.Sharipovaning tadqiqot ishida pedagogik ta'lim klasteri sharoitida talabalarda o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatuvchi omillar va pedagogik srart-sharoitlar oydinlashtirilgan. Tadqiqotchi tomonidan talabalarda o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish modeli va uni amalga oshirishning texnologik bosqichlari hamda ilmiy o'quv-metodik ta'minoti ishlab chiqilgan [17].

S.A.Toshtemirovaning tadqiqot ishida klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishning integrativ modeli ishlab chiqilganligi hamda uni joriy etishning metodik shart-sharoitlarini aniqlashtirilganligi izohlanilgan. Tadqiqotchi tomonidan ta'lim klasteri sharoitida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim klasteri sub'yektlari o'rtasidagi maqsadli va bir-biriga manfaatli hamkorlikni xizmatlarini kengaytirish asosida ta'lim sifatini oshirishning innovatsion-integratsion mexanizmi ishlab chiqilgan [18].

Mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili shuni anglatadiki, *birinchidan* uzluksik ta'lim tizimida ta'lim klasterini amalga oshirish traektoriyasi etarlicha oydinlashtirilmagan, chunki u hozirda an'anaviy ta'lim jarayoniga yangi bir fenomen sifatida maydonga kelgan bo'lsa, *ikkinchidan* klaster tarkibiga kiruvchi subyektlarning o'zaro intergatsion aloqadorligi funksional darajada etarlicha shakllanmagan. Shu bois, mazkur yo'nalishda izchil ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.11.2021-yildagi "Paxta-to'qima-chilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari" to'g'risida PF-14-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5731033>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.12.2023-yildagi "Qishloq xo'jaligi-da erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari" to'g'risida PF-205-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/-6692968>
3. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. – Москва: Эскиммо, 2008.
4. Porter M. Competitivi strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980. – 454 p.
5. Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития. Теория и практика управления. 2003. № 5. – С. 48-56.
6. Тарасенко В.В. Социологическое определение территориальных кластеров. Вестник Адыгейского государственного университета. 2011. №3. – С. 243- 248.
7. Тарасенко В.В. Социологическое определение территориальных кластеров. Вестник Адыгейского государственного университета. 2011. №3. – С.243-248.

**TALABALARNI LOYIHALASH-KONSTRUKTORLIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK
IMKONIYATLARI**

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОЕКТНО-
КОНСТРУКТОРСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ**

**DIDACTIC OPPORTUNITIES OF DEVELOPING DESIGN-
CONSTRUCTION COMPETENCE OF STUDENTS**

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Termiz davlat universiteti
"Milliy libos va san'at" fakulteti dekani

Abdiraxmanov Sardor Normuhamadovich,

Termiz muhandislik-texnologiya instituti "Muhandislik va kompyuter grafikasi"
kafedrasi erkin tadqiqotchisi

Тураев Хумойиддин Абдугаффарович,

Доктор философии педагогических наук (PhD), доцент, декан факультета
национального костюма и искусства Термезского государственного
университета

Абдирахмонов Сардор Нормухаммадович,

Независимый научный сотрудник кафедры «Инженерной и компьютерной
графики» Термезского инженерно-технологического института

Turayev Khumoyiddin Abdugaffarovich,

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor, Dean of
the Faculty of National Costume and Art of Termiz State University

Abdirakhmanov Sardor Normukhamadovich,

Independent researcher of the Department of "Engineering and Computer Graphics"
of the Termiz Institute of Engineering and Technology

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari haqida asosli ma'lumotlar berilgan. U pedagog-olimlar tomonidan talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida yozilgan.

Аннотация. В данной статье дается обоснованная информация о дидактических возможностях развития проектно-конструкторской компетентности учащихся. Он написан на основе результатов исследований, проведенных учеными-педагогами по развитию проектно-конструкторской компетентности учащихся.

Annotation. This article provides reasonable information about the didactic possibilities of developing students' design competence. It is written on the basis of the results of research conducted by scientists and teachers on the development of students' design competence.

Kalit soʻzlar: didaktik, konstruktor, grafik, loyihalash, kompetentsiya, konsepsiya, sintez, motivatsion, kognitey, reflektiv, pedagogik texnologiya, metod, kompyuter grafikasi.

Ключевые слова: дидактический, конструктор, графический, дизайн, компетенция, концепция, синтез, мотивационный, познавательный, рефлексивный, педагогическая технология, метод, компьютерная графика.

Keywords: didactic, designer, graphic, design, competence, concept, synthesis, motivational, cognitive, reflexive, pedagogical technology, method, computer graphics.

Kirish. Talabalarning loyihalash kompetentligini rivojlantirish tizimi obʻektiv va subʻektiv shart-sharoitlar, tashqi va ichki omillarga bogʻliq. Har qanday pedagogik tizim tarkibida ikkita tushuncha aniq koʻrinadi: Didaktik vazifa va uni hal qilish texnologiyasi. Didaktik vazifa tuzilishida istalgan inson faoliyati sohasidagi kabi vaziyatlar (sharoitlar) va mavjud axborot (faoliyat mazmuni)ga asoslangan maqsadlar aks etadi [1].

Chizmachilik fani oʻqituvchisini tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini oʻrganish borasidagi tadqiqotimiz maqsadi texnik tayyorgarlik jarayonida oʻquvchilar grafik faoliyatini tashkil etish uchun boʻlajak chizmachilik fani oʻqituvchilarning loyihalash kompetentligi mazmuni (tarkibiy qismlari) koʻrib chiqilgan axborotlar vositasida shakllantirish hisoblanadi.

Tadqiqotimizda oʻquv materiallarining mazmuni talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning har bir bosqichida grafik va oʻquv-konstruktorlik faoliyatini integratsiyalash yoʻli bilan belgilanadi.

Boʻlajak chizmachilik fani oʻqituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish jarayoni tizimli-faoliyatli yondashuv asosiga quriladi. Uning ijodiy faoliyati, yaʼni loyihalash faoliyatda koʻnikma va malakalaridan ijodkorona foydalanish tajribasida ixtirochilik sifatlarini oʻrni juda beqiyos.

Konstruktorning faoliyati quyidagi bosqichlarga ajratilgan:

1. Obʻektni yaratish kontsepsiyasi - loyihalashda konstruktsiyalash bosqichi boʻlib, unda obʻektning dastlabki modeli aqliy yoki matn bilan, grafik vositalar yoki eksperimental tarzda amalga oshiriladi; buning natijasi texnik qurilmani konstruktsiyalash va texnologik metod ishlab chiqish uchun asos boʻladi.

2. Konstruktsiyalash – loyihalash bosqichi boʻlib, unda mazmunni ifodalash texnik buyum detallari bilan aniqlanadi. Konstruktorlik jarayonida konstruktor faqat

aqliy faoliyatining samarasi bo'lgan, hali mavjud bo'lmagan narsani aks ettirishi kerak. Bu texnika sohasidagi ijodiy muhandislik vazifasidir.

Sintez – buyumni amalda qo'llash uchun tayyorlash texnologiyasi va texnik qurilmalarda konstruktorlik g'oyalarini ijodiy birlashtirishdir.

“Loyihalash” va “konstruktsiyalash” atamalarini yoritishda, ularni birga ko'rib chiqilishi kerakligi va bir tushunchani boshqasidan ajratmaslik maqsadga muvofiq. Aslida “konstruktsiyalash” atamasi qurish, “loyihalash” esa – loyiha, g'oyani yaratishni bildiradi, konstruktsiyalash loyihalashni o'z ichiga oladi [1]. Konstruktsiyalash faoliyatida texnik qurilmalarni yaratishda loyihaviy-konstruktorlik faoliyatni e'tiborga olish kerak.

Yuqoridagilarni tahlil qilib, loyihalash va konstruktsiyalash bu ijodiy, murakkab va o'zaro bog'liq bo'lgan jarayon deb hisoblash mumkin. Loyihalash – bu muhandislik faoliyati ko'rinishi bo'lib, biror konstruktsiyani tayyorlash uchun loyiha ishlab chiqish bilan bog'liq, konstruktsiyalash esa – loyihalash bosqichi bo'lib, konstruktsiya variantlarini yaratish, hisob-kitoblar, operatsiyalarni bosqichma-bosqich bajarishni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar tahlili. D.Mamatov tomonidan chizmachilik fanini o'qitishda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishning ilmiy – metodik asoslari ishlab chiqilgan va amaliyot jarayoniga tadbiq etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Chizmachilik fani o'qituvchisi shaxsini rivojlantirish jarayonini ta'minlovchi omillar yig'indisi va shart-sharoitlari aniqlangan hamda mazmuni ochib berilgan. Chizmachilik fani o'qituvchilarini tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari Sh.N.Muslimovning fundamental tadqiqotlarida o'z aksini topgan [2].

Professor N.Muslimovning tadqiqot ishlarida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari tadqiq etilgan, shuningdek, mutaxassislarining yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [4]. Pedagog olim Sh.S.Sharipov o'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti, o'quvchilarning ixtirochilik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqqan [5].

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchisining loyihalash kompetentligining quyidagi tarkibini aniqlash imkonini beradi:

- motivatsion-qadriyatiy komponent (shaxsning faoliyat ob'ekti sifatidagi o'rnini va yo'nalishini belgilovchi shaxsiy sifatlar;
- kognitiv komponent (ongli faoliyatni ta'minlaydigan nazariy bilimlarning mavjudligi);

- amaliy-faoliyatiy komponent (shaxs tomonidan o'zlashtirilgan, amalda sinab ko'rilgan bilim va ko'nikmalar eng samarali deb hisoblanadi);

- refleksiv-baholash komponent (shaxsning loyihalashaviy ishlarni amalga oshirishda konstruktorlik, loyihalash faoliyatida mustaqilligi, faolligi, ijodkorligi, kreativligi va o'zini-o'zi baholab borish) [6].

Metodologiya. Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonini tahlil qilish tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi. Yukoridagilardan kelib chikib, bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarini tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirish uchun davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi va dasturlarining tizimligi hamda izchilligiga e'tibor karatishni tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri deb belgiladik. Shunga ko'ra, tadqiqotni olib borishda ilmiy izlanish ob'ekti sifatida tanlangan ta'lim yo'nalishining umumiy mohiyatiga tayangan holda talabalarning loyihalash kompetentligini rivojlantirishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihatlar to'g'risidagi tasavvur oydinlashtirib olindi.

Chizmachilik fani umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagogik kadr tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish; ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi [1].

Chizmachilik sohasi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- ta'lim jarayoni;
- o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari;
- ta'limning nazariy masalalari;
- o'qitish metodikasi;
- loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalashtirish va tashkil etish jarayoni, shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayoni; ta'lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topishni tashkil etish jarayoni; ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;
- mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayonlari.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan umumiy kompetentsiyalar

dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va tabiiy –ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi

insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bilishi o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi

elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi

bitta xorijiy tilni erkin so'zlashuv darajasida egallagan bo'lishi

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak

1-rasm. Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan umumiy kompetentsiyalar

Tadqiqotlar va izlanishlar jarayonida bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun va kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kompetentsiyalar aniqlandi. 1-rasmda bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun va 2-rasmda kasbiy faoliyatida zarur bo'ladigan kompetentsiyalar majmui keltirilgan [1].



2-rasm. Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining faoliyatida zarur bo'ladigan kasbiy kompetentsiyalar

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari: pedagogik; ilmiy-tadqiqot; ma'naviy-ma'rifiy; tashkiliy-boshqaruv; ishlab chiqarish faoliyati [1]. Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Xulosa. Ta'lim yo'nalishining yo'nalishlari bo'yicha tayyorlangan bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining loyihalash kompetentligining rivojlantirish amaliy xarakterli majmuasida o'z ifodasini topadi (1-jadval).

1-jadval

Kompetentlikning tuzilmasi komponenti	Loyihalash kompetentsiyalarni faoliyatda qo'llay olish jarayonida talabalarning amaliy xarakterli majmuasi
Kirish. Matematika o'qitish usullari hozirgi davrda yangicha pedagogik texnologiyalar asosida takomillashib, qo'llanilib kelinmoqda. Masalan, buyuk allomalarimiz merosiga tayangan holda tayanch konspektlarga asoslangan o'qitish usuli, yiriklashgan didaktik birliklar usuli va boshqa usullar shular jumlasiga kiradi. Ta'limni differensiallashtirish usuli ham shular jumlasidandir. Darslarni nostandart o'yin tarzida tashkil qilishga keyingi yillarda alohida e'tibor berilmoqda. Masalan, darslarni mo'jizalar maydoni, didaktik o'yinlar tarzida yoki guruhlar o'rtasida bellashuv tashkil qilish mumkin. Bunday usullarga bir nechta misollar keltiramiz: hozirgi davrda jamiyatning ta'limga bo'lgan ehtiyoj va e'tibor ijtimoiy buyurtmasi tub o'zgarishlarga uchradi; har bir o'quvchiga o'zining qiziqish, qobiliyat va moyilliklarini e'tiborga olgan holda ta'limning aniq maqsadlariga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish e'tibor markazidadir. Ijtimoiy buyurtmani ta'limning rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirish vositasi bo'lib o'rta maxsus, kasbiy ta'lim tizimi xizmat qilmoqda. O'rta maxsus, kasbiy ta'limning maqsadi-o'quvchilarni jadal intellektual rivojlantirish, ularga chuqur, iqtisodiy va tabaqalashtirilgan ta'lim berish, o'quvchilar o'zlarining qiziqish, qobiliyat va moyilliklariga mos holda ixtisosliklarni egallashlariga imkoniyat yaratishdan iborat. Umumta'lim maktablariga xos bo'lgan matematika ta'limi maqsadlarini ta'lim, tarbiya, rivojlantirish va amaliy turlarga bo'linishi kasbga yo'naltirilgan maktablarda dixotomik bo'linishga aylanadi: matematika ta'limining umumiy va maxsus maqsadlari farqlanadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan an'anaviy maqsadlarni umumlashtiruvchi umumiy maqsadlar

o'quvchilarni bilim va malakalarning muayyan umumta'lim darajasi bilan ta'minlash uchun qo'yiladi, maxsus maqsadlar esa ta'limning yo'naltirilishi xususiyatlari bilan belgilanadi. Algebraga kelsak, mazkur o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda ko'rgazmali qurollar asosida ikki xil obrazlar yaratiladi: shartli-ramzli obrazlar (shartli-ramziy belgi tizimi asosida) va grafik obrazlar (muayyan qoidalar bo'yicha tartibga solingan nuqtalar to'plamidan iborat grafik tizim asosida). Algebraik materialni o'zlashtirish jarayonida obrazlarni qo'llay bilish shartli-ramziy va grafik turdagi obrazlar shaklidagi ko'rgazmali materialni qabul qilish yo'li bilan olingan axborotni qayta kodlashtirish jarayonida namoyon bo'ladi. Algebraik topshiriqlarni bajarish paytida nafaqat materialning ko'rgazmali jihati qabul qilinadi, balki uning fikriy jihatdan o'zgargan holda anglanishi ham sodir bo'ladi. Ana shunday fikrlash jarayonida dastlabki holatida farqlanadigan hamda oraliq, qo'shimcha holatlar, shakllangan yechimlar, olingan javoblar shaklidagi obrazlar yaratiladi. Biron-bir dastlabki ko'rgazmali obrazni qabul qilish jarayonida harakatlanish jadvalining dinamik obrazi yaratiladi, buning natijasida doimiy ravishda statik obrazdan dinamik umumlashtirishga o'tish amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili.

[3] maqolada matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

[4] maqolada o'quv fanlarini o'rganishda tarixiy yondashuv ma'lum darajada o'quv jarayonini ilmiy bilimga yaqinlashtirishi hamda o'qituvchining matematika tushunchalari bilan tanishar ekan, dars jarayonida ularning tarixi va rivojlanishi (asosan, buyuk ajdodlarimiz xizmatlari) haqida so'z yuritishi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishi, ona Vatanga muhabbatini tarbiyalashi haqida fikr yuritilgan.

[5] maqolada matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanilish masalasi tahlil qilingan. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqligi qayd qilingan. O'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlashi, ularni hayotga tadbiq eta olishga tayyorlanashi haqida so'z yuritilgan.

[6] maqolada bugungi fan va texnika rivojlangan davrda talabalar bilimini mustahkamlashda mustaqil ta'limning o'рни alohida ahamiyat kasb etishi qayd qilingan. Shu nuqtai nazardan mustaqil ta'limni bajarishda talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, mustaqil bilim olish, mustaqil ishlash va mustaqil o'z ustida ishlashga o'rgatish bugungi kunda juda muhimligi ta'kidlangan. Hamda talabalar mustaqil ta'limni tashkil etishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, talabalarga berilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

[7] maqolada ishga doir mantli masalalar va ular qanday turlarga bo'linishi, ularni yechish bosqichlari, bu kabi masalalarda uchraydigan asosiy qonuniyatlar haqida qisqacha tushunchalar keltirilgan. Ishga doir matnli arifmetik masalalarni yechishda qanday tasdiqlarga e'tibor berishimiz kerakligi haqida mulohazalarni umumlashtirib, mavzu bo'yicha masalalar yechimlari namuna sifatida keltirilgan. Keltirilgan tasdiqlar va mulohazalar bilan yechilgan masalalar o'quvchilar hamda fanni mustaqil o'rganuvchilarga matnli masalalarni qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishga yordam berishi ta'kidlangan.

[8] maqolada talabalarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun bir qator nazariy va mantiqiy asoslar taqdim etilgan, ularsiz ko'rsatkichli tenglamalar va tengsizliklarni to'g'ri yechish imkonsizligi ta'kidlangan. Ko'rsatkichli tenglamalarning tipik variantlari va tengsizliklar, shuningdek, bunday muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

[9] maqolada ta'lim sohasini rivojlantirishda ilg'or tajribalardan foydalanib tengsizliklarni yechishda asosiy bilimlarga ega bo'lish va yechimlarni umumlashtirishda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun nimalarga e'tibor qaratish lozimligi to'g'risida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Algoritmik usul yordamida kasr-ratsional, irratsional, logarifmik va trigonometrik funksiyalarga doir tengsizliklarga oid misollarning yechimi keltirilgan.

[10-26] maqola o'quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida interfaol texnologiyalar samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol usullardan foydalanish keng joriy etilayotgani, bu esa o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirishni talab qilishi qayd qilingan. Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarga mo'ljallangan ko'nikmaga asoslangan yondashuvni rivojlantirishga, o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu ularga ta'lim maskanlarida malakali, professional shaxsga aylanish imkonini beradi. Interfaol usullar katta vaqt va jismoniy kuch sarflamasdan, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga qaratilganligi, o'quvchiga nazariy bilimlarni o'rgatish, muayyan faoliyat turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarni egallash, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimni nazorat qilish va baholash katta mahorat va epchillikni talab qilishi haqida so'z yuritilgan.

Asosiy qism.

O'tilgan mavzuni takrorlash maqsadida "Natural ko'rsatkichli daraja" mavzu yuzasidan quyidagi testni keltiramiz.

Test.

1) $\frac{9^2 \times 3^5}{81^2}$ ni hisoblang.

A) 1 **B) 3** C) 9 D) 27

2) $(-2\frac{1}{2})^3$ ni hisoblang.

A) $2\frac{1}{8}$ B) $31\frac{1}{4}$ C) $-8\frac{1}{8}$ **D) $-15\frac{5}{8}$**

3) Quyidagilarni qaysi biri -1 ga teng.

A) $((-1)^2)^3$ B) $(-(-1)^3)^3$ **C) $(-(-1)^2)^3$** D) T.J.Y

4) $\frac{72^6 \times 24^4}{36^8 \times 8^3}$ ni hisoblang.

A) 24 **B) 32** C) 1 D) 28

Natural ko'rsatkichli darajaning xossalari keltirib o'tamiz. Darajaga ko'tarish bir nechta muhim xossalarga ega.

1-xossa.

$$2^2 2^3 = 2^{2+3}$$

$$a^m a^n = a^{m+n}$$

2-xossa.

$$2^{5-3} \times 2^3 = 2^5$$

$$a^m : a^n = a^{m-n}$$

$$\frac{a^n}{a^n} = 1, a \neq 0$$

3-xossa.

$$(2^3)^2 = 2^{3 \times 2}$$

$$(a^m)^n = a^{mn}$$

4-xossa.

$$(2 \times 3)^3 = 2^3 \times 3^3$$

$$(ab)^n = a^n b^n$$

5-xossa.

$$\left(\frac{2}{3}\right)^3 = \frac{2^3}{3^3}$$

$$\left(\frac{a}{b}\right)^n = \frac{a^n}{b^n}; b \neq 0$$

Mosini toping:

Mosini top metodi texnologiyasi. Bu o'yinda javoblar aralash shaklda bo'lsada jadvalda o'z aksini topgan bo'ladi. Bu esa o'quvchilarga to'g'ri javoblarni eslashda yoki mantiqiy fikrlab topishda biroz imkoniyat yaratadi. Chunki, ko'p hollarda javoblarni taqqoslash orqali ham bilimlarni mustahkamlab hamda o'tilgan tushunchalarni mustahkamlash yaxshi samara beradi.

T/r	Formula	Mos qismi
1.	$a^m a^n$	a^{mn}
2.	$a^m : a^n$	$a^n b^n$
3.	$(a^m)^n$	a^{n+m}
4.	$(ab)^n$	$\frac{a^n}{b^n}$
5.	$\left(\frac{a}{b}\right)^n$	a^{m-n}

n -darajali ildizdan b sonni topish a sonidan n -darajali ildiz chiqarish deyiladi. n -darajali ildiz quyidagicha belgilanadi: $\sqrt[n]{a}$, bu yerda: n -indeks (ildizning darajasi) $\sqrt{}$ -ildiz belgisi, a -ildiz ostidagi son.

$n = 2$ bo'lgan ildiz 2-darajali ildiz yoki kvadrat ildiz deyiladi. Odatda uni yozishda ildizning darajasi ishlatilmaydi. A sonning kvadrat ildizi quyidagicha yoziladi: $\sqrt{a} = b$. Bu yerda $a > 0$ va $b^2 = a$. $b^2 = a$ tenglikni qanoatlantiruvchi b ning ikkita haqiqiy qarama-qarshi qiymati mavjud. Masalan, $\sqrt{4} = 2$. Chunki $2^2 = 4$ va $(-2)^2 = 4$. Kvadrat ildizning asosiy xossalari keltirib o'tishimiz shart emas.

Agar n juft bo'lsa va ildiz belgisi haqiqiy va musbat bo'lsa, uning n -darajali ildizlaridan biri musbat, biri manfiy va qolganlari kompleks ammo haqiqiy emas bo'ladi. Agar n juft bo'lsa va ildiz belgisi haqiqiy va manfiy bo'lsa, n -darajali ildizlarning birortasi ham haqiqiy bo'lmaydi. Agar n toq bo'lsa va ildiz belgisi haqiqiy bo'lsa, bitta n -darajali ildiz haqiqiy bo'ladi va uning belgisi ildizning belgisi bilan bir xil bo'ladi, qolgan ildizlar bo'lsa haqiqiy bo'lmaydi.

1-masala. Hisoblang: $\frac{11^7 \times 7^3 \times 3^4}{11^6 \times 7^2 \times 3^4}$

$$\frac{11^7 \times 7^3 \times 3^4}{11^6 \times 7^2 \times 3^4} = 11^{7-6} \times 7^{3-2} \times 3^{4-4} = 11 \times 49 = 539$$

2-masala. Yorug'likning tarqalish tezligi 3×10^8 m/sek ga yaqin, Yerdan Quyoshgacha bo'lgan o'rtacha masofa $1,5 \times 10^{11}$ m. Yorug'lik nuri Quyoshdan Yergacha bo'lgan masofani qancha vaqtda bosib o'tadi?

Tekis harakatda bosib o'tilgan yo'lning $s = vt$ formulasiga asosan:


$$1,5 \times 10^{11} = 3 \times 10^8 \times t$$

$$\text{Bu yerdan } t = \frac{1,5 \times 10^{11}}{3 \times 10^8} = 0,5 \times 10^3 = 500.$$

Javob: 500 sek = 8 min 20 sek.

Mavzuni mustahkamlash uchun "klaster" va "domino" metodidan foydalanamiz.

Klaster metodi texnologiyasi. Mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarga umumiy x^{16} birhad beriladi va bu birhadni turli natural ko'rsatkichli darajalar orqali ifodalash vazifasi beriladi. Bunda o'quvchilar natural ko'rsatkichli darajaning turli xossalari yod oladilar.



Domino metodi texnologiyasi. Bunda birinchi boshlang'ich savol beiladi. Bu savolning javobi uning o'ng tomoniga yoziladi va bu javob keyigi savol vazifasini bajaradi va shu tariqa davom ettiriladi. Domino metodi orqali mustaqil fikrlashi yanada mustahkamlanadi.

“Domino” o'yini

$(x^3)^2$	x^5	a^7b^7	2^{17}	$a^5 + 2a^2$	x^8
$27t^9$	$25a^6$	x^2x^3	a^4a^6	$(xt)^4$	$3x^4 + 6$
$2^{10}2^6$	3^{14}	$(5a^3)^2$	x^5x^1	3^33^9	$(ab)^7$
$3(2+x^4)$	$a^6 + 2a^2$	$(3^2)^7$	a^9	$(a^2)^5$	3^{12}
$2^{11}2^6$	x^4t^4	a^3a^5a	$(3t^3)^3$		

Xulosa.

Matematika fikr sifatida universal bo'lsada, hodisa sifatida u muhitga bog'liq va shu sababli boshqa mamlakatlarda matematika ta'limi muammolari hal etilishi yo'llariga ko'r-ko'rona taqlid qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biroq, ma'lum vaqt oralig'ida sinovdan o'tgan va dunyo ko'lamida matematika ta'limi rivojlanishi tendensiyalariga xos bo'lgan g'oyalarni yangi mazmunni shakllantirish jarayonida e'tiborga olish zarur.

Ildizlar son qatorlarini o'rganishda juda muhim rol o'ynaydi. Ildiz testi orqali darajali qatorning mos tushish radiusi aniqlanadi. Kompleks sonlarning ham ildizini aniqlash mumkin. Birlikning ildizi yuqori matematikada keng o'rganiladi. Qaysi algebraik sonlarni ildizlar bilan ifodalash mumkinligini Galois nazariyasi yordamida aniqlash mumkin. Ildizlar yana Abel–Ruffini teoremasini isbotlash uchun kerak. Abel-Ruffini teoremasiga ko'ra, ko'phadli beshinchi yoki undan yuqori darajali tenglamalarni faqat ildizlardan foydalanib yechish mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. To'laganov T. P. Elementar matematika: Arifmetika, algebra: Ped. in-tlari va un-tlar uchun o'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1997. -272 b
- 3.A. Sh. Rashidov Matematika darslarida ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi. Центр научных публикаций. 2021 yil. 3-son. 68-72 bet
- 4.A.Sh. Rashidov Ijtimoiy-gumanitar ta'lim yo'nalishi talabalari uchun matematik fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish. Science and Education №9. C 283-291
- 5.O.O.Халлоқова. А.Рашидов Пороговое собственное значение модели Фридрихса. Молодой ученый, 2015 №15. С. 1-3
- 6.A. Sh. Rashidov Interaktivnyye metody pri izuchenii temy "Opredelennyy integral i yego prilozheniya". Nauchnyye issledovaniya. № 34:3. C 21-24
- 7.A. Sh. Rashidov Yoshlar intellektual kamolotida ijodiy tafakkur va kreativlikning o'rni. Pedagogik mahorat 2021 yil №7. 114-116 bet.

SUN'IY INTELLEKTNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI

Kasimov Feruz Fayzulloevich

p.f.f.d. (PhD), BuxDPI doktoranti (DSc),

Annotatsiya. Sun'iy intellekt texnologiyalari oliy ta'limda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellektning oliy ta'limdagi o'rni, uning afzalliklari, qo'llanilish usullari va kelajakdagi istiqbollari ko'rib chiqilgan. Talabalar o'quv jarayonini interaktiv va samarali qilishda sun'iy intellektning adaptiv o'qitish tizimlari, chatbotlar, virtual yordamchilar va learning analytics kabi texnologiyalari qanday yordam berishi yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari orqali individual yondashuv, o'qituvchilarning yuklamasini kamaytirish va o'quv jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Аннотация. Технологии искусственного интеллекта играют важную роль в высшем образовании. В данной статье рассматривается роль искусственного интеллекта в высшем образовании, его преимущества, методы применения и перспективы на будущее. Освещается, как технологии адаптивного обучения, чат-боты, виртуальные помощники и learning analytics помогают сделать образовательный процесс интерактивным и эффективным. Также анализируются возможности индивидуального подхода, уменьшения нагрузки на преподавателей и оптимизации образовательного процесса с помощью технологий искусственного интеллекта.

Annotation. Artificial intelligence (AI) technologies play a significant role in higher education. This article examines the role of AI in higher education, its advantages, application methods, and future prospects. It highlights how adaptive learning systems, chatbots, virtual assistants, and learning analytics can help make the educational process more interactive and efficient. Additionally, the article analyzes the possibilities for individualized approaches, reducing the workload of educators, and optimizing the educational process through AI technologies.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Oliy ta'lim muassasalari SI texnologiyalarini qo'llab,

ta'lim jarayonini samarali va interaktiv qilishga intilmoqda. Bu maqolada SI ning oliy ta'limdagi o'rni, uning afzalliklari, qo'llanilish usullari va kelajakdagi istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ko'plab sohaga kirib kelmoqda. Oliy ta'limda SI quyidagi texnologiyalar orqali qo'llaniladi:

Adaptiv o'qitish tizimlari. Adaptiv o'qitish tizimlari sun'iy intellekt (SI) va ta'lim texnologiyalarining integratsiyasi orqali yaratilgan zamonaviy o'quv tizimlaridir. Ular talabalar bilim darajasiga mos ravishda o'quv materiallarini taqdim etadi va individual yondashuvni ta'minlaydi. Bu tizimlar ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Adaptiv O'qitish Tizimlarining Xususiyatlari

1. Individuallashtirilgan Yondashuv: Har bir talabaning bilim darajasi, o'quv uslubi va qiziqishlariga mos ravishda o'quv materiallari taqdim etiladi.
2. Real Vaqt Tahlili: Talabalarning o'quv faoliyati real vaqtda kuzatilib, natijalari tahlil qilinadi. Bu orqali tizim talabaga mos tavsiyalar beradi.
3. Interaktiv O'quv Muhiti: O'quv materiallari interaktiv shaklda taqdim etiladi. Bu esa talabalarning qiziqishini oshiradi va bilimni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.
4. Moslashtirilgan Vazifalar va Testlar: Talabalarning o'zlashtirish darajasiga qarab, ularga mos vazifalar va testlar taqdim etiladi.

Adaptiv O'qitish Tizimlarining Afzalliklari

1. Yuqori Samardorlik: Individuallashtirilgan yondashuv tufayli talabalar o'zlariga mos tempda va usulda o'qib-o'rganishlari mumkin. Bu bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi.
2. Motivatsiya va Qiziqishni Oshirish: Interaktiv o'quv muhiti va o'yinlashtirish elementlari talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.
3. O'qituvchilarning Yuklamasini Kamaytirish: Tizim avtomatlashtirilgan tarzda ma'lumotlarni tahlil qilib, talabalar bilim darajasini aniqlaydi. Bu o'qituvchilarga ko'proq vaqt va resurslarni talabalar bilan individual ishlashga imkon beradi.

4. Doimiy Tahlil va Takomillashtirish: O'quv jarayoni doimiy ravishda kuzatilib, tizimning samaradorligi baholanadi va kerakli o'zgartirishlar kiritiladi.

Adaptiv O'qitish Tizimlarining Qo'llanilish Usullari

1. Onlayn Ta'lim Platformalari: Coursera, edX, Khan Academy kabi onlayn ta'lim platformalari adaptiv o'qitish tizimlarini qo'llaydi. Bu platformalar talabalarga individual yondashuv asosida bilim olish imkoniyatini beradi.
2. Virtual Sinflar: Virtual sinflarda adaptiv o'qitish tizimlari yordamida talabalar o'zlashtirish darajasiga qarab turli darajadagi vazifalarni bajarishlari mumkin.
3. O'yinlashtirish (Gamification): O'yin elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali talabalar bilimlarini oshirish mumkin. Adaptiv tizimlar bu jarayonda talabalar qiyinchilik darajasiga mos ravishda o'yinlarni taqdim etadi.
4. O'quv Resurslari va Tavsiyalar: Adaptiv o'qitish tizimlari talabalar faoliyatini kuzatib, ularga mos o'quv resurslari va tavsiyalar beradi. Bu orqali talabalar bilimlarini chuqurroq o'zlashtiradi.

Misollar va Amaliy Tatbiqlar

1. Knewton: Knewton adaptiv o'qitish tizimi bo'lib, talabalarning o'zlashtirish darajasini kuzatib, ularga mos o'quv materiallarini taqdim etadi. Knewton turli ta'lim platformalari bilan integratsiya qilingan.
2. Smart Sparrow: Bu tizim talabalar faoliyatini real vaqtda kuzatib, ularga mos vazifalar va resurslarni taqdim etadi. Smart Sparrow asosan oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladi.
3. DreamBox: DreamBox adaptiv matematika o'qitish tizimi bo'lib, boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Bu tizim o'quvchilarning bilim darajasiga mos mashg'ulotlarni taqdim etadi.

Chatbotlar va virtual yordamchilar: Talabalar savollariga javob beruvchi va doimiy yordam ko'rsatadigan tizimlar.

Learning Analytics: Talabalarning o'quv jarayonini kuzatib, ularga mos keladigan o'quv strategiyalarini ishlab chiqish.

Sun'iy Intellektning Afzalliklari

Individual yondashuv: Adaptiv o'qitish tizimlari har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi. Bu orqali talabalar o'zlariga mos keladigan sur'atda o'qib-o'rganishlari mumkin.

Interaktivlik: Chatbotlar va virtual yordamchilar talabalar bilan doimiy aloqada bo'lib, ularga kerakli ma'lumotlarni tezkor taqdim etadi. Bu talabalar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Learning Analytics texnologiyalari orqali talabalar faoliyati kuzatilib, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Bu esa o'qituvchilarga ta'lim jarayonini optimallashtirishga yordam beradi.

Yuklama kamayishi: O'qituvchilarning yuklamasini kamaytirib, ular uchun ko'proq vaqt va resurslarni talabalar bilan ishlashga ajratish imkonini beradi.

Qo'llanilish Usullari

Ma'ruza va darslarni boshqarish: SI yordamida ma'ruza va darslarni boshqarish, o'quv materiallarini yaratish va tarqatish mumkin.

Test va baholash tizimlari: SI orqali avtomatlashtirilgan test va baholash tizimlari yaratilib, talabalar bilimni tez va adolatli baholash mumkin.

Yordam va maslahat: Chatbotlar va virtual yordamchilar orqali talabalar har doim kerakli yordam va maslahatlarni olishadi.

O'quv jarayonini monitoring qilish: SI orqali talabalar faoliyati kuzatilib, o'qituvchilarga real vaqtda tahlil natijalari taqdim etiladi.

Kelajakdagi Istiqbollar

SI texnologiyalarining rivojlanishi bilan oliy ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Kelajakda quyidagi istiqbollar kuzatilishi mumkin:

AI o'quv tizimlarining kengayishi: SI texnologiyalari asosida yangi o'quv tizimlari va platformalar yaratiladi.

Interaktiv va virtual ta'lim muhitlari: Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari SI bilan integratsiyalanib, talabalarga yanada interaktiv va chuqur ta'lim berish imkonini beradi.

Hayot davomida o'qish (lifelong learning): SI texnologiyalari insonlarga hayot davomida yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari oliy ta'limda katta o'rin tutadi va ta'lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va individual yondashuv bilan boyitishga imkon beradi. SI texnologiyalarining rivojlanishi bilan oliy ta'lim sohasida yanada ko'proq imkoniyatlar ochilishi va ta'lim jarayoni sifatini oshirish kutilmoqda. Bu esa kelajakdagi ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Brusilovsky, P., & Millán, E. (2007).** "User Models for Adaptive Hypermedia and Adaptive Educational Systems." In P. Brusilovsky, A. Kobsa, & W. Nejdl (Eds.), *The Adaptive Web: Methods and Strategies of Web Personalization* (pp. 3-53). Springer.
2. **Corbett, A. T., & Anderson, J. R. (1994).** "Knowledge tracing: Modeling the acquisition of procedural knowledge." *User Modeling and User-Adapted Interaction*, 4(4), 253-278.
3. **Kumar, V., & Chadha, S. (2011).** "An Empirical Study of the Applications of Data Mining Techniques in Higher Education." *International Journal of Advanced Computer Science and Applications*, 2(3), 80-84.
4. **Pardo, A., & Siemens, G. (2014).** "Ethical and privacy principles for learning analytics." *British Journal of Educational Technology*, 45(3), 438-450.
5. **Knewton. (2014).** "The Knewton Adaptive Learning Platform." *White Paper*. Retrieved from knewton.com
6. **Kasimov F.F.** Methodology of teaching programming technology. "Theoretical & Applied Science, 5/2020, 346-350.

ME'MORIY ARKA ELEMENTLARINING GEOMETRIK ASOSLARINI BAJARISH USULLARI

Omonov Qavmiddin Karimovich

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
“Muhandislik grafikasi va raqamli texnologiyalar” kafedrası mudiri

Annotasiya: *ushbu maqolada me'moriy arka elementlari asoslari geometric tahlil qilinib bajarish usullari ko'rsatilgan.*


Oliy ta'lim muassalari muhandislik grafikasi dars mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalari va grafik dasturlardan foydalanib tashkil etish hozirgi ta'lim islohotining dolzarb masalasi hisoblanadi. Ayniqsa, geometrik yasashlar bo'limi talabalarning faol grafik tasavvurga ega bo'lishni ta'minlaydi. Chunki geometrik yasashlar murakkab jarayon bo'lib, uni og'zaki tarzda tushinish va tushintirib bo'lmaydi. Shuning uchun muhandislik grafikasi dars mashg'ulotlari jarayonida kompyuter texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish samarali bo'ladi.

Bir qancha me'moriy manbalar va obidalarga keltirilgan grafik shakllarning bajarilishini, geometrik tahlillarining amaliy bajarilish usullarini ko'rib chiqamiz.

M.S.Bulatov o'zining “Геометрическая гармонизации в Архитектуре Средней Азии IX-XV вв.” (IX-XV asrlar O'rta Osiyo me'morchiligida handasaviy uyg'unlik) asarida ravoq, toq va gumbazlar yasashini geometrik tahlil etishda aynan Ibn Sino ko'rsatgan uslubni asos qilib oladi va undan keng foydalanadi. Olim ravoq chizishning ellips uslubini nafaqat O'rta Osiyo me'morchiligiga emas balki Yaqin va O'rta Sharq me'morchiligiga ham qo'llanilganligini qator misollarda ko'rsatib beradi. Ushbu usullardan foydalangan holda Muhandislik grafikasini grafik dasturlar imkoniyatlari asosida o'qitishda qo'llash samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Me'morchilikda qo'llanilgan arkalarni geometrik tahlil qilib o'qitish jarayonida qo'llashda ularning turlari va yasash usullarini taklif qilamiz. Bunda ikki markazli, to'rt markazli arkalarning geometrik yasashlarini ikki va uch tasvirlarda yasashini ko'rib chiqamiz.


Arka ko‘rinishlarining yaratilishi arxitekturaviy shakllar kompozitsiyasida katta yangilik hisoblangan. Arka (ravoq) deraza, eshik, ayvon ustini yoki ikki ustun orasini yoy ko‘rinishida yopuvchi qurilmadir. Bir tekislikda yotgan ravoqlar qatori arxitekturada qatorak (arkatura) deb ataladi. O‘rta Osiyo arxitekturasida ravoq bino peshtoqlarining kirish qismini, eshik, deraza, yo‘lak, devordagi taxmon, tokchalar ustini va gumbaz osti qismlarini yopuvchi qurilmalar tarzida keng tarqalgan. Umuman olganda ravoq shakllarini qurish uslublari juda ko‘p. Ularni asosan ikki guruhga bo‘lish mumkin: birinchisi - bir necha markazdan aylana yoylari bilan qurish, ikkinchisi – ellips uslubi bilan qurish.



Ravoq qurishning G‘iyosiddin Koshiy ko‘rsatgan uslubi

Arka (lot. *arcus* — yoy, yoysimon egik) [1] lar me‘morchilikda foydalanilgan turli xil ko‘rinishga ega va bir qancha geometrik yasashlar orqali farq qiladi: bular, sirkul yordamida bajariladigan, parabolik, sferakonusli shakllari va ellips ko‘rinishlaridagi arkalar mavjud. Arkalarni yasashda kvadratlardan, berilgan kesmani teng nisbatlarda bo‘lish orqali amalga oshiriladi [2].

Ikki markazli arkalar Somoniylar maqbarasida ham foydalanilgan (1-rasm, a, b, c). Geometrik shaklini yasashda markazidan ikki tomonga teng bo‘laklarga bo‘linadi va 1-nuqtalardan qarama-qarshi tomonlarga 4 va 6 nuqtalardan aylana yoylari o‘tkaziladi (1-rasm, a da Somoniylar maqbarasining kirish qismi, geometrik asosi, c da 3D ko‘rinishi).




a)

b)


c)

1-rasm.

To'rt markazli arkalar kvadratlar usulida amalga oshiriladi. Buning uchun arkaning kengligiga asosan ikkita bir xil kvadrat yasab uning tomonlari teng uchga bo'linadi. O markazdan O_1 gacha bo'lgan masofada aylana yoyi o'tkazilib markaz chizig'i bilan kesishgan nuqtasi O_1 lar birlashtiriladi. To'g'ri chiziqlar yuqoriga va pastga davom ettirilib O_2 nuqtalar topiladi. O_1 markazlardan R_1 masofali yoylar $O_1 O_2$ to'g'ri chiziqlar kesmasiga kesishguncha davom ettiriladi. O_2 markazlardan R_2 aylana yoylari kesishgan nuqtalardan yoylar chiziladi va to'rt markazli arka hosil bo'ladi (2-rasm, a.). 2-rasm, b da ham kvadrat usulidan foydalanilgan bunda kvadratlar teng sakkiz bo'lakka bo'lish orqali bajarilgan.



a)




b)


2-rasm. To'rt markazli arkalarining geometrik yasalishi.

XII asrda Buxoroda barpo etilgan Masjidi kalonning g'arb tomon fasadining bir qismida joylashgan arkaning geometrik tahlilini L.I. Rempel 3-rasm a da ko'rsatilgandek tahlil qilgan, biz bu geometrik tahlilni o'qitish jarayoniga tushinarli bo'lishi va ta'lim yo'nalishi talabalarining amaliyotda qo'llab chizishlari uchun arkaning geometrik tuzilishini batafsilroq qilib bajardik va 3-rasm b da ko'rsatilgan

amaliy usuli ishlab chiqildi. Buning uchun arkaning kengligiga teng L masofali kvadrat chiziladi va shu kvadratning ustiga joylashgan $L/2$ o'lchamga teng qilib kichik kvadratlar bajarilib shu kvadratlardan diagonallar o'tkazilib katta kvadratning asosi bilan kesishgunicha davom ettirilib O_1 markaz va O_2 markaz nuqtalari topiladi. O_1 markazdan R_1 ($L/2$) masofali aylana yoyi o'tkaziladi. Yoy bilan diagonallar kesishgan nuqtalar aniqlanib O_2 nuqtalardan R_2 aylana yoylari o'tkazilsa yuqori qismidagi arka hosil bo'ladi. Ichki qismida joylashgan arkaning yasashda yuqoridagi kvadratning diagonaliga teng masofada aylana yoyi tushirilib O_3 markazlar belgilanadi va O_1O_2 markazlarni tutashtiruvchi to'g'ri chiziqlarga parallel qilib O_3 markazlardan to'g'ri chiziqlar o'tkazilib O_4 markaz nuqtalari ham aniqlanadi. O_3 markazlardan R_3 masofali aylana yoylari o'tkaziladi. O_4 markazlaridan O_3O_4 markazlarni tutashtiruvchi to'g'ri chiziq bilan kesishgan nuqtalarda O_4 markaz orqali R_4 aylana yoylari o'tkazilsa kichik arkaning geometrik shakli yasalanadi. Bu arkalar to'rt markazli arkalar hisoblanadi.




a)



b)


3-rasm.

L.I.Rempelning “Далёкое и близкое” (Uzoq va yaqin) manbasining 184-betida ko'rsatilgan Ulug'bek (4-rasm, a, b) hamda Abdulazizxon (5-rasm) madrasalarining old kirish qismining geometrik yasashlarini batafsil bajarib ko'rsatamiz. Bu akra ikki makazli arka bo'lib dinamik kvadratlardan foydalaniladi.



4-rasm.

a) L.I.Rempelning geometrik tahlili, b) Ulug'bek madrasasi peshtoqining geometrik tahlili va yasalihi.



5-rasm, Abdulazizxon madrasasi peshtoqining geometrik tahlil va yasalihi.

Mashhur olimlar B.N.Zasipkin, L.I.Rempel, G.A.Pugachenkova, P.SH.Zohidov, K.S.Kryukov, V.L.Voroninalar Markaziy Osiyo obidalariga xos o'nlab gumbaz va

ravoqlarning tuzulishini o'rganib chiqib, G'iyosiddin Koshiyning ravoq chizish usulini to'g'riligiga ishonch hosil qiladi. Qizig'i shundaki, Koshiy ko'rsatgan usullardan biri Samarqanddagi Amir Temurning jome masjidi peshtog'iga ishlangan ravoq shaklini ishlashda ham qo'llanilgan ekan. Uni ishlashda Koshiy usullaridan biri - uch markazli aylanalardan foydalanilgan. Demak, ushbu uslub me'morlarga Koshiygacha ancha oldin Yuqoridagi arkalarning ko'rinishlaridan foydalanib gumbaz, toq va ravoqlarning ham geometrik yasallishlarini o'quv jarayoniga qo'llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” 98 б.
2. Ремпель Л.И. // Далёкое и близкое. Бухарские записи. Т.: 1981 г. с. 179
3. A.S. Uralov, T.SH. Mamatmusayev // Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash. Toshkent–2015
4. Аҳмедов М. Ўрта Осиё меморчилиги тарихи.—Т.: Ўзбекистон, 1995.
5. Омонов, К. К. Создание 3D-тела или поверхности путем сечений двумя или более кривыми в Auto CAD / К. К. Омонов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 2 (82). — С. 185-187. — URL: <https://moluch.ru/archive/82/15096>
6. М. С. Булатов. Геометрическая гармонизация в архитектуре средней Азии IX-XV вв. Москва 1988 й.
7. Т.Р. Собиров, Қ. К. Омонов. “Муҳандислик компютер графикасида геометрик нақшларни лойиҳалаш” Ёшларни касбга йўналтириш, технологик таълимни такомиллаштириш ва ўқувчилар меҳнат фаолияти кўникмаларини ривожлантириш имкониятлари. Республика илмий-амалий онлайн анжуман материаллари тўплами. Тошкент-2020 йил 20 –май
8. Омонов, К. К. Создание трехмерной многогранной сети по вершинам в САПР AutoCAD / К. К. Омонов, Д. К. Маматов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 11 (70). — С. 93-95. — URL: <https://moluch.ru/archive/70/11939/>

9. Sobirov T.R., Omonov Q.K. [IX-XV asrlar markaziy Osiyo allomalarining geometrik yasashlari zamonaviy ta'limda qo'llash](#) / Pedagogik mahorat 2.2021
10. Sobirov T.R., Omonov Q.K. [Graphical Basis Of Girikh Used In Traditional Applied Decorative Art Of Central Asia In The 9-15 th Centuries.](#) / Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol 27/ 2021/1/1
11. Omonov Q.K. [Yozma mabalarida keltirilgan handasaviy chizmalarning tahlili va ta'limda qo'llanilishi](#)/ 2022/5/30/ Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке.
12. Qavmiddin Omonov [ABU NASR FAROBIYNING GEOMETRIK YASASHLARINI MUHANDISLIK GRAFIKASIDA O'QITISHNING SAMARALI USULLARI](#)/ 2023/12/15/ INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions" 1

ME'MORIY OBIDALAR GUMBAZLARNING UCH O'LCHAMLI KO'RINISHLARINI TASVIRLASH USULLARI

Omonov Qavmiddin Karimovich

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

“Muhandislik grafikasi va raqamli texnologiyalar” kafedrası mudiri

Annotasiya: Ushbu maqolada IX-XV asrlarda O'rta Osiyoda vujudga kelgan me'moriy obidalaridagi gumbazlarning uch o'lchamli tasvirlarini Auto Cad dasturida bajarish usullari ko'rsatilgan.

IX-XV asrlarda O'rta Osiyoda handasa fanning taraqqiy etishiga olib keldi. Bu esa o'sha davr olimlari va me'morlarining yuksak saviyali, ilmiy qomusiy olimlar bo'lganligidan dalolat beradi. Bu davrda peshtok, bag'al, gumbaz, toq va ravoqlarning bir necha yangi geometrik ko'rinishlari ishlab chiqilgan. Binolarning tarxi fazoviy shakllanishida juda ham turli-tuman geometrik shakllarini o'zaro uyg'unlashtirib foydalanishgan. M.S. Bulatov, P.Sh.Zoxidov, L.I.Rempel va boshqalarning ilmiy izlanishlarida geometrik yasashlarni O'rta Osiyo me'morchiligida handasaviy uyg'unlashashuvi va me'moriy mutanosiblashtirish usullari keng qo'llanilganligini ko'rsatdi.


Binolarning plani va fasadini tuzishda murabba' (kvadrat), uning tomoni va diagonalini tashkil etgan har xil geometrik shakllar to'rtburchak, uchburchak, aylana kabi oddiy shakllardan foydalanib murakkab kompozitsiya loyihalarini tuzishgan. Gumbazlarning geometrik ko'rinishlari asosan uch turdan kelib chiqqan. Birinchisi kvadrat va to'rtburchak ko'rinishidagi xonalarni yopishda ravoqlarni yasashdan kelib chiqadigan “*gumbazi Balxiy*” turi. Ikkinchi tur gumbazlar konussimon bo'lib, Hindiston va Pokistonda ular “*Gumbazi turkistoniy*” nomini olgan. Uchinchi tur gumbazlar bu shar va konusning ustma-ust joylashib birlashuvidan kelib chiqadigan, qubba shaklidagi eng ko'p tarqalganlaridir. Uning juda ham ko'plab shakl va ko'rinishlari ishlab chiqilgan. Misol tarzida Shohi Zinda majmuasini olib ko'rish mumkin. Bu yerda nechta gumbaz bo'lsa, o'shancha gumbazosti turkumlari va shuncha turdagi gumbazning tashqi ko'rinishini kuzatish mumkin. Ularning ba'zisi qoburg'asimon bo'lsa, yana biri serqirra, boshqasi esa tikroq yoki yassiroq qurilishi bilan farq qiladi. Shunday qilib gumbazlarning balxi, sag'onapo'shi, turkistoni, kuloxi,

mirzoyi, shalg'omi (va boshqalar) kabi ko'plab turlari ishlab chiqilgan. Gumbaz osti inshootlari ham turlicha bo'ladi. Masalan, bag'allar, iroqi, muqarnas, ravoqlar, ikki toqning kesishuvidan kelib chiqqan lingabozi, murabba'dan to'g'ri aylanib ko'tariluvchi charxi, aylana ustivorligi va boshqalar [1].

Gumbaz (*forscha-qubba, ravoq*) larning har xil, kurra (yarim shar), qit'a (*segment*), maxrut (*konussimon*) turlari mavjud.

IX-XV asrlar O'rta Osiyo me'morchiligida qo'llanilgan bu gumbazlarning geometrik shakllarini Auto CAD dasturida 3D ko'rinishlarini bajarish orqali talabalarning geometrik tasavvurini oshirishda xizmat qiladi. Bu esa me'morchilikda uchraydigan har qanday geometrik shakllarni tahlil qilishda grafik dasturdan foydalanib o'qitishning samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunda geometrik shakllarning ikki va uch o'lchovli ko'rinishlarini vizual ko'rish orqali geometrik tahlil qilish ancha oson.



1-rasmlarda gumbazlarning ko'rinishi va Auto CAD dasturida 3D modellari tasvirlangan.




a) *Ismoil Somoniy maqbarasi gumbazining yarim sferik ko'nishi.*
Buxoro. IX-X asr



b) *Mog'aqi Attor masjidi XII asrda Qoraxoniylar hukmronligi davrida bunyod etilgan. Buxoro. Asosi muntazam sakkiz burchakli sferokonik gumbaz.*



c) *Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi gumbazi.
Turkiston shahrida XIV-asrning oxirlari*




d) *Go'ri Amir maqbarasining sferakonik qovurg'ali gumbazi. Samarqand XV asr.*



e) *Masjidi kalon. Buxoro XII asr. Sferokonik gumbaz. 3D ko‘rinishi.*




f) *Chashmai Ayub maqbarasi konussimon gumbaz. Buxoro XII asr.*



g) *Boboji Xotun maqbarasi asosi o‘n olti burchakli yulduz shaklidagi umumiy uchga ega piramidasimon gumbaz. Jambul viloyati XI asr.*

1-rasm.


Talabalarda grafik tasavvurni shakllantirishda gumbazning geometrik tahlil qilib gumbazlarning 3D modellarini yasash uchun birinchi navbarda uning ikki o‘lchamli tasvirning bir qismi yasilib keyin uch o‘lchovli ko‘rinishga keltiriladi. Buning uchun aylanish markaz o‘qi va uning atrofida aylanma sirt hosil qiluvchi yasovchining ikki o‘lchamli ko‘rinishi tasvirlanadi (2-rasm, a). Auto CAD grafik dasturi yordamida (Вращать) buyrug‘i tanlanib  aylanma sirt belgilanadi va aylanish markaz o‘qining ikki uchu belgilansa aylanish markaz o‘qi atrofida 360° burchak ostida gumbazning vizual 3D ko‘rinishi hosil bo‘ladi (2-rasm, b) [2].



2-rasm.

Bu usul yordamida barcha aylanma sirtlarni bajarish mumkin.

1-rasm *b* da ko'rsatilgan Mag'oqi Attor masjidi gumbazining yasovchisi muntazam sakkiz burchakli asosga mos holda o'lcham asosida geometrik shaklining bir qismi yasaladi (3-rasm, a) va gumbaz asosining bir tomoniga ikkita qirrasi bitta umumiy uchga birlashtirilib bajariladi.  (По сечениям) buyrug'i tanlanib birinchi yasovchilar belgilanadi va yo'naltiruvchi tanlanib ENTER bilan tasdiqlansa gumbazning bir bo'lagi tayyor bo'ladi (3-rasm, b).




3-rasm.


Ushbu shaklni ustdan ko'nishi holatiga keltirilib,  (Массив) buyrug'i bilan sakkiz bo'lakka ko'paytirilsa 1-rasm *b* da ko'rsatilgan 3D ko'rinishi hosil bo'ladi.

1-rasm *g* da ko'rsatilgan Boboji Xotun maqbarasi gumbazining asosi muntazam o'n olti burchakli to'g'ri piramida shaklidagi ko'rinishga ega bo'lib, uning geometrik yasashini Auto CAD grafik dasturida quyidagi yasash usulida bajaramiz. Gumbazning asosi va balandligini aniq o'lcham bo'yicha yasaladi (4-rasm, *a*, *b*).

Gumbaz asosini yasashda aylana chizilib teng o'n olti bo'lakka bo'lishda aylananing ichida bitta kvadrat  (Многоугольник) buyrug'i bilan chizilib,  (Массив) buyrug'i bilan o'n oltiga ko'paytiriladi. Aylananing markazidan perpendikulyar qilib to'g'ri chiziqli vertikal holatda ko'tariladi, gumbaz asosidagi bir qismini saqlab *S* uchi bilan birlashtirilib yasovchi va yo'naltiruvchilari to'g'ri chiziqlar bilan birlashtirilsa piramida shaklidagi gumbazning yoqlaridan bir qismining karkas ko'rinish hosil bo'ladi. Karkas shaklini ko'pyoqlikning yoqlaridan birini yasashda (по сечениям)  buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Buning uchun buyruq tanlanganda yasovchi chiziqlar belgilanib ENTER tugmasi bosiladi keyin yo'naltiruvchi chiziqlar tanlanib ENTER tugmasi bilan tasdiqlansa karkas ko'rinishidan sirt ko'rinishiga aylanadi. Ustdan ko'rinishiga o'tkazilib  (Массив) buyrug'i bilan aylana markazidan o'n oltiga ko'paytirilsa gumbazning to'liq ko'rinishi hosil bo'ladi (4-rasm, *c*). ushbu amallardan foydalanib siklik sirtlardan tashkil topgan gumbaz va me'morchilikda qo'llaniladigan geometrik elementlarni bajarish mumkin.



a) Gumbaz asosi



*b) Gumbaz yoqlarining
bir qismi.
4-rasm.*



*c) Gumbaz sirtining 3D
tasviri.*

Yuqorida ko'rsatilgan usullar orqali turli xil ko'rinish va o'lchamlardagi gumbazlarning ikki va uch o'lchamli ko'rinishlarini amalga oshirib talabalarning fazoviy tasvvurini oshirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримова Н. // Урта асрлар меъморларининг биноларни лойihalаш усулларини о'рганиш ва улардан меъморий ёдгорликларни таъмирлашда фойдаланиш. Магистрлик диссертация. Самарқанд—2016 74-б.
2. Қ.К.Омонов, Auto CAD ГРАФИК ДАСТУРИДА СИРТЛАРНИ ЯСАШНИНГ АҲАМИЯТИ. // ISCIENCE. АКТУАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. XIV Международная научная конференция 26-27 июня 2017 г.СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ. ВЫПУСК 6(14) ЧАСТЬ 5 Переяслав-Хмельницкий
3. Омонов, К. К. Создание трехмерной многогранной сети по вершинам в САПР AutoCAD / К. К. Омонов, Д. К. Маматов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 11 (70). — С. 93-95. — URL: <https://moluch.ru/archive/70/11939/>
4. Sobirov T.R., Omonov Q.K. [IX-XV asrlar markaziy Osiyo allomalarining geometrik yasashlari zamonaviy ta'limda qo'llash](#) / Pedagogik mahorat 2.2021
5. Sobirov T.R., Omonov Q.K. [Graphical Basis Of Girikh Used In Traditional Applied Decorative Art Of Central Asia In The 9-15 th Centuries.](#) / Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol 27/ 2021/1/1
6. Omonov Q.K. [Yozma mabalarida keltirilgan handasaviy chizmalarning tahlili va ta'limda qo'llanilishi](#)/ 2022/5/30/ Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке.
7. Qavmiddin Omonov [ABU NASR FAROBIYNING GEOMETRIK YASASHLARINI MUHANDISLIK GRAFIKASIDA O'QITISHNING SAMARALI USULLARI](#)/ 2023/12/15/ INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”